

جدید

2025-yil 4-aprel
№ 14(66)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishdada birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

NUQTAYI NAZAR

“DO‘ST QIDIR, DO‘ST TOP JAHONDA...”

Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlar qadim-qadimdan do‘st-inoq, quda-anda, qon-qardosh bo‘lgani barchaga ma‘lum. O‘lkadagi har bir mustaqil mamlakat o‘z milliy davlatchilik asoslarini qayta bunyod etib, ko‘ksini ko‘tarib, dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rnini topgunga qadar, haq gapni aytadigan bo‘lsak, bir muddat o‘z ichki masalalari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi muammolarini hal etishga ko‘proq kuch va vaqt sarflashdi. Aslida dunyodagi hech bir mamlakat o‘z holicha yolg‘iz yashay olmaydi. Oddiy bir insonning yashash sharoitida olis-yaqin qo‘ni-qo‘shnilari bilan muomala-munosabat naqadar muhim bo‘lsa, mamlakatlar uchun ham dunyo hamjamiyati va ayniqsa, qo‘shnilari bilan o‘zaro birdam, do‘stona munosabat shu qadar zarurat sanaladi.

Yaqinda qadimiy Xo‘jand shahrida O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston davlatlari rahbarlarining uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Men qo‘shni mamlakatlar yetakchilarining samimiy muloqotini o‘yinay jahan orqali ko‘rib, to‘g‘risi, quvonganimdan ko‘zlarimga yosh keldi. Chunki istiqlolning avvalgi yillarida, har kim o‘zi bilan o‘zi band bo‘lgan mahallarda chegaralarga simto‘rlar tortildi, zovurlar qazildi. Mundoq do‘ppini yerga qo‘yib, mulohaza qilib ko‘rilsa, o‘zbek, tojik, qirg‘iz, qozoq, turkman – bu qon-qardosh xalqlar bir-birlarini ko‘rmasa, muloqot qilib turmasa, ularning turmush tarzi tugal bo‘lmaydi. O‘zbek tojikning to‘yiga, qirg‘iz qozoqning bayramiga bormaydigan bo‘lsa, men aminmanki, ularning yegan oshi ham tatimaydi. Bizning azaliy qardoshligimizning eng go‘zal ramzi – bu bizning ochiq qalbimizga mos ochiq dasturxonimiz. Tojiklarning bayram va to‘ylarida

Mening boshqa millatga mansub juda ko‘p do‘stlarim, ilmiy sohada faoliyat olib borayotgan shogirdlarim bor. Ular menga xuddi otalariga ko‘nglini ochgandek o‘zlarining shodiyona kunlarini ham, g‘amgin pallalarini ham so‘zlab berishadi. Quvonchiga sherik bo‘laman, muammolari bo‘lsa, qo‘limdan kelgancha hal etishga yordam beraman. Yoshlik yillarimda tanishgan bir qancha toijg-u qirg‘iz do‘stlarim, keyingi yillarda orttirgan shogirdlarim bilan har doim aloqadaman. Ular meni Mustaqillik bayrami, Navro‘z ayyomi, hayit kunlarida tabriklaganlarida boshim osmonga yetadi va ularning oilasiga, el-yurtiga baraka tilab duolar qilaman. Asl do‘stlikning mag‘zi ham shunda.

Anjuman kunlari Prezidentlar Xo‘jand qal‘asiga borishdi. Bu qadimiy qal‘a bir necha ming yillik tarixga ega ekani ko‘pchilikka ma‘lum. Xo‘jand deganda beixtiyor milliy qahramonlar – pahlavon Jaloliddin



Oqil SALIMOV,
akademik

Men ona tariximizning shoh asari bo‘lgan Sohibqiron Amir Temur qalamiga mansub “Temur tuzuklari”ni dunyoning nodir yodgorliklaridan biri, deb hisoblayman. Birinchidan, asar muallifining favqulodda daho siymo ekanligi, ikkinchidan, yozilish uslubi soddaligi, uchinchidan, asar taqdirining g‘aroyibli, to‘rtinchidan, olingan davr (bu davrda jahon xaritasi yangidan tuzildi, Yevropa Renessansiga zamin yaratildi, Amir Temur dunyo hayotini harakatga keltiruvchi qudratli kuchlardan biri bo‘lib maydonga kirdi) g‘oyatda muhimligi bu asarga jahonda bo‘lgan qiziqish va e‘tiborni tobora oshirib bormoqda.

9-APREL - SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUD TOPGAN KUN



“TEMUR TUZUKLARI” YODGORLIGIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Bir qaraganda, “Tuzuklar” haqida hamma narsa ma‘lumdek: birinchi kitob (asli 2 kitobdan iborat) “...Yeti yillik yurishdan so‘ng zafar va nusrat bilan Samarqandga qaytdim...” degan so‘zlar bilan yakunlanadi. Bu 1404-yil avgust oyiga to‘g‘ri keladi. Lekin hali o‘rganilishi, aniqlanishi kerak bo‘lgan jihatlar yetarlicha topiladi.

Ayrim xorijiy va o‘zimizning olimlarimiz orasida ham “Tuzuklar”ni Amir Temur yozganiga shubha bilan qarovchilar bor. Bu borada, birinchi galda, uning savodi masalasi, Sohibqironning davlat odami ekani, nihoyatda bandligi, saltanat yumushlari ko‘pligi va shiddatli harbiy yurishlar orasida kitob yozishga fursat topish mushkulligini sabab qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ladilar. To‘g‘ri, har kim o‘z subyektiv fikrini bildirish huquqiga ega. Lekin tariximizda misol bor: Zahiriddin Muhammad Bobur, qisqa umri

davomida, bir joyda qo‘nim topmay, sarson-sargardonliklarda yurib, “Boburnoma”day ulkan asar yaratdi-ku! Insonning shijoati, g‘ayrati, imkoniyatlari cheksiz...

Lekin bir haqiqatni aytib o‘tish joiz. “Temur tuzuklari” juda soddada, ayni paytda murakkab asar. Bunday asarni yozish uchun muallif keng dunyoqarashga ega, tarixning og‘ir qadamlarini o‘z boshidan kechirgan, dunyoni bemalol chamalovchi buyuk arbob maqomini egallagan, tarix va geografiyani chuqur bilgan, etnonimlar, toponimlar... hayot, dunyo oqimi, umr yo‘llari haqida katta xulosalar chiqarishga qodir dono faylasuf darajasidagi siymo bo‘lmog‘i kerak. Boshqacha aytak, “Turon saltanati” (davlatimizni Sohibqironning o‘zlari shunday ataganlar. O‘zlarini “Turon sultoni”, deb nomlaganlar, toshga o‘yib yozdirganlar) Amir Temurning ijodi edi, ana shu saltanat

bobomizning mashaqqatli mehnati bilan bo‘y ko‘rgizdi, uning qonunlari, shunchaki o‘z-o‘zidan emas, hayotiy zarurat yuzasidan dunyoga keldi. “Temur tuzuklari” esa barchasining yorqin ifodasi sifatida paydo bo‘ldi. Chindan ham, “Tuzuklar” zamon zarurati va talabi bilan yaratilgan asardir.

“Tuzuklar”ni saltanat tuzishda tajribalar orttirgan, muarrix Nizomiddin Shomiy ta’riflagandek: “kamol-u martabalariga o‘zining yetuk sa’y-harakati va jiddu jahdi bilan erishgan” Amir Temur singari odamgina yoza oladi, bu haqda kitob yozish shunday odamninggina qo‘lidan keladi! Bu yerda shubha bo‘lishi mumkin emas. “Temur tuzuklari”ni mutolaa qilganda, uning muallifi nechog‘lik yuksak ma’naviyat va keng bilim sohibi ekanligining guvohi bo‘lamiz.

(Davomi 6-sahifada).

MUNOSABAT

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI:

“MARKAZIY OSIYO ENDI TARIXNING CHETIDA EMAS, BALKI O‘Z STRATEGIK KUN TARTIBINI SHAKLLANTIRAYOTGAN, JADAL RIVOJLANAYOTGAN MINTAQAGA AYLANMOQDA”

O‘zbekiston Prezidentining “Euronews”ga bergan intervyusi ko‘plab nufuzli xorijiy OAV tomonidan e‘lon qilindi

euro
news.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 4-aprel kuni Samarqandda bo‘lib o‘tadigan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammiti oldidan “Euronews”ga bergan eksklyuziv intervyusi yetakchi xalqaro ommaviy axborot vositalarida keng rezonansga sabab bo‘ldi.

Ko‘plab xorijiy bosma va elektron nashrlar o‘z sahifalarida O‘zbekiston rahbarining “Euronews” savollariga bergan javoblarning to‘liq matnini turli tillarda e‘lon qildi hamda bu bilan yangi O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro kun tartibining asosiy masalalari bo‘yicha pozitsiyasiga katta qiziqish borligini tasdiqladi.

(3-sahifada o‘qing).

BUGUNNING NAFASI

“MARKAZIY OSIYO – YEVROPA ITTIFOQI” SAMMITI MUHIM IMKONIYAT

“МАРКАЗИЙ ОСИЁ - ЕВРОПА ИТТИФОҚИ”
БИРИНЧИ САММИТИ



2025 йил 3-4 апрель,
САМАРҚАНД ШАҲРИ

“Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi rasmiy sammitining Samarqand shahrida o‘tkazilishi bejiz emas. Samarqand ko‘p asrlardan beri ilm-fan, madaniyat, savdo-sotiq markazi bo‘lib kelgan. Bu qadim kentning tabiati, iqlimi, tarixiy obidalari va shaharsozlik madaniyati jumla jahonga ma‘lum-u mashhur.

(Davomi 3-sahifada).



o‘zbekcha kuy-qo‘shiq yangraydi, ular ham “Lazgi”ni jon-u dildan yaxshi ko‘radi. Qirg‘izlar “Andijon polkasi”ga raqscha tushadi. Ildizlari bir bo‘lgan bu xalqlarni ajratish go‘yo etdan timoqni ayirishdek gap aslida.

Menga chegara hududida bunyod etilgan ramziy uch qirrali minoraning ko‘rinishi juda ma‘qul bo‘ldi. Iste‘dodli tojik shoiri Mirzo Tursunzodaning:

“Do‘stlar qo‘l berib ahd-u vafoga,
Boshin ko‘tarmakda yuksak fazoga” – degan misralari xuddi bu kun uchun aytilgandek. Zotan, do‘stlik-qarindoshlikning sasadolari olis moziy qaridan keladi; bu qarindoshlikning tomirlari esa juda baquvvat va chuqur. “Yuksak fazoga” bo‘y cho‘zgan uch mamlakat ramzining do‘stona ezgu g‘oyalarini muhtasham belbog‘ avaylab o‘rab, quchib, opichlab – birlashtirib turibdi. Bu san‘at namunasi bo‘lgan monument poyiga gullar qo‘yilganida bamisoli o‘sha ramziy novdalar chechak ochganday bo‘ldi. Demak, millatlar orasidagi do‘stlik rishtalari mustahkamlanar ekan, kelgusida bu qardoshlik navnihollari o‘z mevasini beradi. Hamkorlikda quriladigan zavod va fabrikalarda o‘zbek, tojik, qirg‘iz millatiga mansub mutaxassislar bahamjihat mehnat qiladi. Ular do‘stlik tilida so‘zlashadi.

Do‘st bilan obod uying,
Gar bo‘lsa u vayrona ham.
Do‘st qadam qo‘ymas esa,
Vayronadir koshona ham...

Do‘st qidir, do‘st top jahonda,
Do‘st yuz ming bo‘lsa oz.
Ko‘p erur bisyorushman,
Bo‘lsa u bir dona ham.



E'TIROF

EGIZ DENGIZ

Asrlar osha insoniyat dunyoga taralib, millatlar o'z chegaralarini kengaytirib, ayrimlari o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, xohlagan erkinligiga qiyinchiliklar orqali erishib, o'z taqdirini o'zi belgilab, ulkan maqsadlar bilan oldinga intilib ketmoqda...

Shunday muhim davrlarning uzaygan fasli ba'zan yaxshilikka xizmat qilmay, ko'z-u qoshdek yaqin ellar ham bir-biriga qarshi chiqib, adolatdan yiroqlashib, kutilmagan adovatga duch kelgan davrlar ham bo'ldi. Shukrki, bari ortda qoldi...



mazmunli bo'lsin! Oldinda turgan umid yo'llari do'stlik bog'lariga yorqin nur sochaversin!

Xalqlar o'rtaqidagi nizolar faqat ziyon keltirgani, biror kimga manfaat yetkazmagani barchaga ma'lum... Yaxshilikka yuz burib, quchoq ochib, belni mahkam bog'lab, faqat rivojlanishga yuzlanish vaqti kelganini ham rahbarlarimiz, ham oqsoqollarimiz ta'kidlayotgani xalqlarimizning baxtidir asli...

Donolar aytganidek, yomon millat yo'q, faqat yaxshi millat ichida adashgan ayrim yomon

xulq egalorigina bo'lishi mumkin. Bungacha bo'lgan nizolarning sababi ham o'shal ayrim qora niyatli shaxslarning siyosiy fitnasi va noto'g'ri yo'nalish olib borandandir...

Yozning munavvar kuniday kirib kelgan Navro'z bayramini yagonalik, ulug' maqsad va ezgu tilaklar bilan birgalikda nishonlashimiz ham yaxshiliklarning yanada ziyodalashishiga olib kelishi muqarrar...

Devor qurmay, so'z qurib, kelishmovchilikka emas, o'zaro hurmatga asoslangan birodarlik kunlari ko'pay-sin! Ilgari aytilgan haqiqat – "Olis qarindoshdan yaqin qo'shning yaxshi" degan hikmatning amaliy namunasini hayotda ko'rsatish vaqti keldi. Bu baxt va quvonch uzoqqa yo'l olsin...

Ikki insonning do'stligi egiz bo'lsa, uch millatning do'stligi ulkan dengiz bo'la oladi. Bu do'stlik bizni o'rab turgan tog'lardek mustahkam va abadiy bo'lsin!

Bekturali ISAMIDDIN,
Qirg'iziston Milliy yozuvchilar
uyushmasi a'zosi,
shoir

BIRLASHISH FURSATI

Xo'jand shahrida uch davlat rahbarlarining uchrashuvi muhim voqealik bo'ldi.

Markaziy Osiyo xalqlari dini, e'tiqodi va tili jihatdan bir-biriga eng yaqin hisoblanadiki, boshqa mintaqalarda bunchalik o'xshashlik uchramaydi. Ba'zi vaqtlarda o'zbek, qozoq, qirg'iz... bir bo'lib qolsa, bir-biridan keskin farq yo'qligini his qilasiz. Aslida ham shunday.

Yillarki, davlatlar qolib, ko'ngillar orasiga chegaralar tortildi. Lekin oddiy xalq baribir bir-birini – qon-qardoshini topib, muomala qilib yashayverdi.

Bir necha yillar Xitoyda ishladim. O'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz darrov birlashib olardik. O'rtada begonalik, dilxiralik bo'lmasdi.

Tojikistonlik Sodiqjon degan hamkasbim bor edi. Uyg'urlar bilan yaxshi muomala qilishimizni ko'rib: "Baxtiyor aka, baribir tojiklar uyg'urlarga qaraganda o'zbeklarga yaqinroq", deb qo'yardi. "Shubha yo'q, Sodiqjon", derdim. Qarang, tojik do'stimiz bizni rashk qilardi-da! U yerda tojik yigit-qizlar ko'p edi, o'rtamizda hech bir begonasirashni sezmaganimiz.

Xitoydagi qozoq bo'vurlar yig'in qilishsa, bizni ham chaqirar, boshqalar qolib bizdan fikr so'rardi.

Qirg'izistondan yosh-yosh yigitlar magistraturada o'qishga kelishgandi. Juda inoq edik. Bir kuni qarasam, bir qirg'iz yigit kichkina o'g'limni velosipedga o'tqizib olib, o'zi ortidan yugurib o'ynatib yuribdi.



Pokistonlik, hindistonlik tanishlar hayron qolardi "Shunaqa yaqinmisizlar?" deb. "Yaqinmiz!" derdim.

Xullas, birlashish fursati kelganini hamma tushunib turibdi. Bo'linganni bo'ri, ayrilganni ayiq yeydigan davrlar allaqachon kelganini ham angalayapmiz. Shunday ekan, birlashishimiz, uyushishimiz shart!

Baxtiyor ABDUG'AFUR,
yozuvchi

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Qarang, so'nggi bir oyda (bir yilda emas!) qanday tarixiy qadamlar tashlanyapti. Xalqaro maydonda obro'mizni yanada oshirgan, mahkamlagan uch muhim voqeani sanab o'tsam.



VATANIMIZ NUFUZI YUKSALMOQDA

Bular: mart oyi boshida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron bilan muzokaralar; mart yakuniga borib Xo'jandda O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston rahbarlari uchrashuvi; mana endi aprel avvali Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" sammiti. Iqlim xalqaro forumi ham bor. Aslida, bu tashabbuslar biri ikkinchisini to'ldiradi, oldingisi keyingisiga yo'l ochib boraveradi.

Masalan, Fransiya tarixiy tashrif Yevropa ittifoqi davlatlarining Markaziy Osiyoga bo'lgan e'tiborini oshirdi. Boshqacha aytsak, Samarqandda bo'lib o'tadigan sammit uchun katta qadam tashlandi. Bu O'zbekiston uchun o'ta muhim siyosiy voqea bo'libgina qolmay, amaliy imkoniyatlar manbai ham. Tadbirning aynan Samarqandda o'tkazilishi xalqaro imij va nufuzimizni ko'taradi. Sammitga mezbonlikning o'ziyoq O'zbekistonning mintaqadagi yetakchi davlat sifatidagi o'rni mustahkamlaydi. Mamlakat tashqi siyosatining ochiq, pragmatik va muloqotga tayyor ekanini bildiradi.

Xo'janddagi uch tomonlama uchrashuv esa Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining kuchayib borayotganidan dalolat. Uzoq yillar davomida turli kelishmovchiliklar tufayli cheklangan aloqalar bugun do'stlik va birodarlik ruhida qayta tiklanmoqda. Chegaralar ochilishi, mintaqaviy muammolarning bartaraf etilishi – nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun ham katta qadamdir.

Bu o'zgarishlarni ko'rib men faxru iftixorga to'ldim. Aziz yurtoshim, siz ham ilgari kuzatilmagan bunday siyosiy voqealik – dunyo bizni o'ziga teng ko'rib, hamkorlik qilayotganini his qilyapsizmi? Tarixning qanday burilish nuqtasida turganimizni angalayapsizmi? Nimani anglab, nimalarni his qilayotganingizni bilish men uchun qiziq. Umid qilamanki, mamlakatimiz va mintaqamiz rivojida muhim rol o'ynaydigan tarixiy hodisalarning guvohi bo'layotganingizni o'zingiz ham yaxshi bilib turibiz.

Abdusot ABDURAHIMOV
Facebook

SURUR



XO'JAND:

MANGU QARDOSHLIK YO'LIDAGI ZALVORLI QADAMLAR

Qardoshlarimizda yaxshi bir udum bor. Mehmon kelishi haqidagi xabarni xushxabar sifatida qabul qilishadi. Aslan sarishta uy qaytadan supurib-sidiriladi, suv sepilib, hovli chinniday tus oladi. Mehmonnavozlikka eng sarxil meva-cheva olib, tansiq taomlar pishirishga taraddud ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev janobi oliylarining Tojikistonga kelishi haqidagi xushxabar oddiy odamlardan tortib ziyolilargacha, rahbarlik vazifalarida ishlayotgan kishilargacha barchani birdek to'lg'inantirib, yuksak ko'tarinki ruh bag'ishladi. Tojikiston Prezidenti hurmatli Emomali Rahmon va markazi Xo'jand shahri bo'lgan Sug'd viloyati raisi Rajabboy Ahmadzoda oliyqadrl mehmonni izzat-ikrom bilan kutib olish taraddudiga kirishdilar. Ustiga Xo'jandga yana bir oliyqadr mehmon – Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning kelishi nur ustiga nur bo'ldi. Uch qo'shni mamlakat prezidentlarining qadimiy Xo'jand shahrida uchrashishlari tarixiy voqeaga aylanishi kutilgandi va xuddi shunday bo'ldi ham.

Emomali Rahmon O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni o'zgacha ehtirom ila kutib oldi. Ikki qadrdon do'stning bir-birini mehr bilan qarshi olishini ko'rgan qaysi bir kishining bu samimiyatga havasi kelmadi deysiz. Yaxshi qo'shnichilik va mehmonnavozlik an'analariga sodiqlikni ko'rgan ko'zlar quvonadi. Aeroport maydonida oliyqadrl mehmon poyi qadamiga qirmizi yo'lak to'shalib, har uch davlat rahbarlarining suratlari, davlatlar bayroqlari va uch qo'shni mamlakat xalqlarining do'stligi va birodarligini madh etuvchi shiorlar o'rnatilgan. Guldasta tutgan milliy libosdagi xushqomat qizlar o'zbek va tojik tillarida "Xush kelibsiz, aziz mehmon" – "Xush omaded, mehmoni aziz", debon har ikki tilda jozibali she'rlar aytishdi. Kuy qo'shiqqa, qo'shiq raqsiga ulandi. Aeroport maydonini to'ldirgan qizlar o'zbek va tojik navolariga xiromon aylashardi.

Xo'janddagi uchrashuvda uch mamlakat Prezidentlari bir-birlarini Navro'z bayrami bilan qutlashdi. O'zbekiston va Tojikiston rahbarlari ikki davlat o'rtasida barcha sohalaridagi hamkorliklar jadal sur'atlarda kengayib borayotganidan mamnunligini bildirdi. Ayniqsa, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarning faol rivojlanayotgani ta'kidlandi. Davlatlar rahbarlari tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ittifoqchilik shartnomasi imzolashining naqadar muhim ekanini urg'ulab, bu amal har ikki mamlakat xalqlarining mustahkam do'stligi va bir-birini qo'llab-quvvatlashining yorqin dalili deb atashdi.

Shu kuni uch davlat chegaralarining tutashuv nuqtasi hududi borasida shartnoma imzolandi. Uch tomonlama muzokaralardan so'ng O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikalari davlat chegaralarini bog'lovchi nuqta hamda abadiy do'stlikka doir Xo'jand deklaratsiyasi imzolani, mamlakatlar chegaralarini tutashuv-bog'lash nuqtasida ramziy stella ochildi.

Shavkat Mirziyoyev Tojikiston va Qirg'iz Respublikalari orasida ikki o'rtadagi barcha masalalar uzil-kesil hal etilgani hamda chegarani demilitatsiya qilish to'g'risidagi shartnomani imzolangani bilan qo'shni mamlakatlar sarvarlarini samimiy tabrikhladi.

– Qirg'iz qo'shnilarimiz bilan qanchalik yaqin bo'lsak, o'zbek do'stlarimiz bilan ham shunchalik qadrdonmiz, – dedi Ifsardagi 54-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Nodira Otaxonova. – Dadamning onalari aslida Yaypandan bo'ladi. Ammamni o'sha yerga uzatganmiz. Vafot etganlarida borolmadik. Chegaradan o'tishga qo'yishmagan. Shavkat Mirziyoyev davlat boshiga kelgach, chegara ochilib, kech bo'lsa-da, fотиha qilib, ko'ngil so'rab keldik. Yaypandan qishlog'imizga 70 nafardan ortiq qiz kelin bo'lgan. Ularning ko'pchiligi hozir o'g'il-qizli, nevarali bo'lib ketishgan. Yaypandagi ammamning qizini Lakkondagi ammamning o'g'liga kelin qilib olganmiz. Yaqinda yana bir lakkonlik yigit yaypanlik qizga uylandi. O'z navbatida lakkonlik qizlar Yaypanga uzatiladi. Ikki yonimdagi ikki qo'shnmning qizlari ham Farg'onaga kelin bo'lib tushishgan.

Oliy martabali mehmonlar yangilangan qadimiy Xo'jand qal'asini borib ko'rishdi. Ular qal'a kiraverishidagi hunarmandchilik uylarida ochilgan o'zbek, tojik va qirg'iz xalq hunarlari ustalarining mehnat mahsullari ko'rgazmasi

bilan tanishishdi. O'zbekistonlik miskar usta shu yerning o'zida mis tovoqqa o'ymakorlik ishlarini tugatayotgan edi. Gilam to'quvchi qirg'iz hunarmand ayol guldor jun namat to'qirdi. Tojikistonlik pichoqchi usta san'at asariga aylangan qilichni namoyish qilardi. Bu ko'rgazmadagi har bir hunarmandchilik mahsulini chinakam san'at asarining o'zginasidir.

Tojik xalqi hayotini aks ettiruvchi, Xo'jandda yashab o'tgan olimlar va shoirlar ijodi bilan tanishtiruvchi, qadimiy naqshlar, idishlar, bezaklar, taqinchoqlar, devorsuratlar, o'ymakorlik san'ati bilan ishlangan yog'och ustunlar, mahalliy an'analar asosida qurilgan va bezatilgan uylar, hunarmandlar shaharchasi mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

– Xo'jand qal'asini qayta qurishda o'zbekistonlik ustalar – samarqandlik koshinkorlar va rishtonlik kulolarning katta hissalar bor, – deydi Sug'd viloyati raisi Rajabboy Ahmadzoda.

– Men Samarqanddanman. Xo'jand qal'asini qayta qurishda ikkita katta guruhimiz ishladi. Biz koshin tayyorlash va o'rnatishni xo'jandliklarga ham o'rgatdik. Hamdamam ham biz – samarqandliklar va xo'jandliklar do'stlashib ketdik, – deydi usta Shahobiddin Amriddinov.

O'rni kelganda, O'zbekiston Prezidentining Xo'jandga tashrifi oldidan bu qadimiy shaharda o'zbekistonliklar ishtirokida qator tadbirlar bo'lib o'tganini eslatib o'tish joiz. O'zbekistonning "Vatandoshlar" jamoat fondi tomonidan o'zbek va tojik do'stligi tamal toshini qo'yan ikki buyuk mutafakkir – Mavlono Abdurahmon Jomiy va hazrat Mir Alisher Navoiyga bag'ishlangan adabiy kecha o'tkazildi. So'zga chiqqan tojikistonlik o'zbek shoiri Sultonmurod Hojiboyevning fikricha, dunyoda o'zbek va tojikni ajratguvchi hech qanday kuch yo'q. Shu kuni "Vatandoshlar" jamoat fondi Sug'd viloyatidagi o'zbek maktablarga va kutubxonalarga kitoblari sovg'a qildi.

"Do'stlik bahori" deb atalgan xalqaro Navro'z bayrami boshlanishidan oldin so'zlagan har uchala davlat rahbarlari stadionga yig'ilgan yigirma besh ming kishini qo'shni, qardosh xalqlarning umumiy shodligi bilan tabriklashdi. "Biz Tojikiston bilan ittifoqchi davlatga aylandik, endi Qirg'iz Respublikasi bilan ham ittifoqchi bo'lishimizga yaqin qoldi", dedi O'zbekiston Prezidenti.

Shavkat Mirziyoyev uzoq davom etgan qarsaklar bilan kutib olingan yana bir fikrni o'rtaga tashladi: "Biz xalqaro Navro'zni an'anaga aylantirishni istaymiz. Kelasi yili sizni Farg'onada o'tkaziladigan Navro'z bayramiga taklif etamiz". U yana har ikki qo'shni mamlakatga O'zbekistondan parvoz qiladigan samolyot reyslarini va chegaralari shaharlariga avtobus qatnovlarini ko'paytirish uchun ish olib borilayotganini ma'lum qildi.

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov uch mamlakat ora vizasiz bordi-keldini yo'lga qo'yish taklifini o'rtaga tashladi.

Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon Navro'z va uning an'anaviy urf-odatlariga haqida gapirib: "Bu bayram tariximiz va madaniyatimizning tarkibiy qismi sifatida asrlar osha bizni tinchlik-osoyishtalik, do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga undab kelgan", dedi.

Rahbarlar birlashgan yurtlarning xalqlari ham do'stlashadi. Bu isbotlangan haqiqat O'zbekiston va Qirg'iz Respublikalari Prezidentlarining Xo'jandga safari, ularga keng quloq ochgan Tojikiston Prezidenti bilan muloqoti, xalqlar orasida do'stlik iplarining chiyran bog'lanishi misolida yanada kuchliroq, yangicha tus oldi.

Xo'jandda qo'shnilar – uch mamlakat xalqlari orasida mangu do'stlik uchun chinakam zalvorli qadamlar tashlandi. Xo'jand osmonida bejiz har uchala davlat Prezidentlari tasviri, har uchala mamlakat xaritasi yorqin nurlar sochmadi. Go'yo mustaqil davlatlar xaritalariga ishora qilayotgan Prezidentlar bu dunyoda juda ko'p muammolarni bartaraf etuvchi, kelishmovchiliklarni chetga surib tashlovchi, kutilmagan va kutilgan nizolarning oldini oluvchi qudratli kuch borligi haqida so'zlayotgandek edi. Bu yengib bo'lmay kuch – do'stlikdir! Xo'janddagi xalqaro Navro'z endi O'zbekiston va Qirg'iz eli shaharlarida davom etajak!

O'rinboy USMON,
Tojikiston Yozuvchilar ittifoqi a'zosi, adib
Xo'jand shahri



Boshlanishi 1-sahifada.

Ulug' olim Abul Fath Bustiy demishki:

Ul dunyoda jannat bordir
mo'minlarga atalgan,
Bul dunyo jannatining
nomi erur Samarqand.

Yetti iqlimga dong'i ketgan buyuk shaharning nufuzi istiqloq sharofati bilan yanada yuksaldi. Ayniqsa, keyingi yillarda davlatlar rahbarlari, dunyo olim va siyosatshunoslari uchun o'zaro hamkorlik rishtalari bo'lanadigan markaziy maydonga aylanib bormoqda.

Joriy yilning 3-4-aprel kunlari aynan Samarqandda o'tkaziladigan "Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi" birinchi rasmiy sammiti ham mintaqamizning barqaror rivojlantirishiga vosita bo'lguvchi katta tarixiy imkoniyatdir.

Sammitdan ko'zlangan asosiy maqsad – Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, hozirgi xalqaro notinch vaziyat, urushlar va Afg'onistondagi beqarorlik tufayli Yevropa Ittifoqining mintaqaga bo'lgan geosiyosiy ta'sirini kuchaytirish, iqtisodiyot, transport va energetika sohasida ikki tomonlama aloqalarni chuqurlashtirish orqali hamkorlikni kengaytirish; xalqaro huquq, jahon xavfsizligi, barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha, o'z dunyoqarashlarini, muvofiqlashtirish uchun muho-



kama, muloqot maydonini yaratishdan iborat.

Shuningdek, ekologik muammolar va global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish chora-tadbirlarini muhokama qilish sammit kun tartibidagi asosiy masalalardan biridir. Bunda ko'rib chiqiladigan asosiy muammolardan biri yashil

energetika va Yevropa energetika tashabbuslariga integratsiya qilish uchun energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda qazib olinadigan resurslarga bog'liqlikni kamaytirish maqsadida shamol va quyosh energiyasidan foydalanishni kuchaytirishga oid masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

“MARKAZIY OSIYO – YEVROPA ITTIFOQI” SAMMITI MUHIM IMKONIYAT

O'zbekistondagi nanotexnologiyalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan nodir metallar xomashyosini qazib olish va ularni qayta ishlash bo'yicha Yevropa Ittifoqi tomonidan yetarlicha mablag' ajratish rejalashtirilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida logistika tuzilmalarini, jumladan, transkaspiy yo'nalishi bo'yicha muhim loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Ushbu infratuzilmani rivojlantirish uchun Yevropa ittifoqi Yevropa investitsiya banki orqali qariyb 1.5 mlrd yevro ajratishni rejalashtirgan. Shuningdek, yuk tashish jarayonlarini yaxshilash va ekologik salbiy ta'sirini kamaytirish uchun intellektual boshqaruv tizimlarini, ya'ni transport infratuzilmasini raqamlashtirishni joriy etish masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan dasturlarni moliyalashni kengaytirish bo'yicha Yevropa Ittifoqi tashabbuskor bo'lib, maxsus jamg'arma tashkil qilish rejalashtirilmoqda.



Shodi XOLIQULOV,
qishloq xo'jaligi fanlari
doktori,
professor

metallar yangi energiyaga o'tish uchun muhim strategik ahamiyatga ega.

Yana eng muhim masalalardan biri sifatida iqlim o'zgarishini muntazam tarzda monitoring qilib borish uchun Markaziy Osiyodagi eng chekka va olis hududlarda ham sun'iy yo'ldosh internet tizimlarini joriy etish muhokama qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand sammitida Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasida ekologiya va iqlim muammolarining yechimini topishda va ularni integratsiya qilish yo'lida muhim qadam tashlanadi.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI:

“MARKAZIY OSIYO ENDI TARIXNING CHETIDA EMAS, BALKI O'Z STRATEGIK KUN TARTIBINI SHAKLLANTIRAYOTGAN, JADAL RIVOJLANAYOTGAN MINTAQAGA AYLANMOQDA”

Boshlanishi 1-sahifada.

Xususan, davlatimiz rahbarining intervyusi Janubiy Koreyaning yetakchi nashrlaridan biri – “Diplomacy Journal” jurnali, Pokistonning “Diplomatic News Agency – DNA” axborot agentligi, “Daily Islamabad Post” va “The Daily Big Digit” gazetalar tomonidan e'lon qilindi. Bundan tashqari, mazkur intervyu “Infozakon” va “Kursiv” (Qozog'iston), “Q8 Press” (Kuvayt), “Industriya Yevrazii” va Kommersant” (Rossiya) kabi elektron nashrlar, shuningdek, “Theasiatoday”, “Yekoavrasya”, “Ankasam” (Turkiya) onlayn platformalari tomonidan tarqatildi. Shuningdek, mamlakatimiz yetakchisining intervyusi bilan Turkmanistonning “News Central Asia” yangiliklar portalida, Ukrainaning “Kyiv Diplomatic” jurnalida ingliz va ukrain tillarida, Saudiya Arabistonining “Wkrka News”, Belgiyaning yetakchi “EU Reporter” nashrlarida ham tanishish mumkin. O'zbekiston Prezidentining intervyusiga bo'lgan qiziqishni, shuningdek, Britaniyaning “London Post” yangiliklar portali, Xitoyning “Kitay” jurnali, Misrning “Sada al-Balad” axborot agentligi va boshqa nashrlar ham tasdiqlaydi.

Jahon ommaviy axborot vositalari O'zbekiston Prezidentining Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlardagi ijobiy dinamika haqidagi so'zlarini alohida ta'kidlagan. Qayd etilganidek, so'nggi yetti yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi to'rt barobar oshib, 54 milliard yevroga yetdi. Bu holat mintaqaning Yevropa mamlakatlari uchun istiqbolli hamkor sifatidagi roli oshib borayotganidan dalolat beradi.

Mashhur nashrlar, shuningdek, Prezidentimizning Samarqandning savdo, ilm-fan va diplomatiyaning tarixiy markazi sifatidagi o'zni haqidagi fikrlariga e'tibor qaratgan. “Uning ulug'vorligi turli madaniyatlar, xalqlar va g'oyalarni birlashtira olganida, – deya Prezident Shavkat Mirziyoyev so'zlaridan iqtibos keltirilgan. – Bugun u yana Yevropa va Markaziy Osiyo zamonamizning asosiy muammolarini muhokama qilishi mumkin bo'lgan muloqot maydoniga aylanmoqda”.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan o'zgarishlar ham yuqori baholangan. Nashrlar O'zbekiston Prezidentining Markaziy Osiyo mintaqasi haqidagi savolga javobidan misol keltirgan: “So'nggi yillarda Markaziy Osiyo tubdan o'zgardi, yangi qiyofa kasb etdi – konstruktiv muloqot, ishonch va har tomonlama hamkorlik maydoniga aylandi. Bu esa mamlakatlarimiz yetakchilarining umumiy siyosiy irodasi tufayli amalga oshdi. Bugun biz bu jarayonning ortga qaytmasligi haqida ishonch bilan ayta olamiz”.

O'zbekiston Prezidentining afg'on masalasi bo'yicha pozitsiyasiga alohida urg'u berilgan. Xorijiy ommaviy axborot vositalari davlatimiz rahbarining O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan yondashuvi har doim pragmatik va uzoq muddatli strategik tamoyillarga asoslanib kelgani haqidagi bayonotiga e'tibor qaratdi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev qo'shni Afg'onistondagi vaziyat haqidagi savolga javob berar ekan, quyidagilarni ta'kidladi: “Hozirgi rahbariyat Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga, o'z resurslarini aeroportlar, ichki temir yo'l tarmoqlari, suv-energetika

infratuzilmasini rivojlantirishga va ko'knor maydonlarini qisqartirishga yo'naltirishga muvaffaq bo'ldi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, “Tolibon” 2023-yilda g'iyohvand moddalar savdosini taqiqlaganidan so'ng, Afg'onistonda ko'knor yetishtiriladigan yerlar 95 foizga kamaygan. Afg'onistonda ko'knordan xoli kelajak barpo etish maqsadida qishloq aholisiga yordam ko'rsatilmoqda, qishloq xo'jaligining muqobil yo'nalishlari rivojlantirilyapti”.

Nashrlarda ta'kidlanganidek, bo'lajak “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitining muhim natijalaridan biri tomonlarning strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatishga bo'lgan mushtarak istagini aks ettiruvchi Samarqand deklaratsiyasining imzolaniishi bo'ladi. “Deklaratsiya nafaqat erishilgan kelishuvlarni mustahkamlaydi, balki mintaqalarimiz o'rtasidagi aloqalarni chuqurlashtirish uchun asos yaratadi, – dedi O'zbekiston Prezidenti. – Biz investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, qo'shma infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, innovatsiyalar va raqamli yechimlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq kelishuvlarga erishishdan umid-vormiz”.

Nufuzli xorijiy OAV, shuningdek, O'zbekistonning konstruktiv muloqot va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillariga sodiqligini ta'kidlab, Prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini iqtibos o'rinda keltirgan: “Biz barqaror rivojlanish va xalqlarimizning farovonligini oshirishga xizmat qiladigan, o'zaro manfaat va ishonchga asoslangan konstruktiv hamkorlik tarafdorimiz”.

“Dunyo” AA

JAHON AYVONIDA

ZILZILA QURBONLARI 2800 DAN OSHDI

Myanmada zilzila qurbonlari soni 2886 kishiga yetdi, 4639 kishi jarohatlangan, 373 kishi bedarak yo'qolgan, deb xabar bermoqda Xinhua nashri rasmiylarga tayanib.



Ma'lumot uchun, 28 mart kuni Myanmada 7,7 magnitudali yer silkinishi sodir bo'lgan edi. Zilzila o'chog'i mamlakatning ikkinchi yirik shahri Mandalayning g'arbiy qismida joylashgan. Silkinishlar Tailand va bir qator qo'shni davlatlarda ham sezilgan.

SENATOR NUTQI BILAN REKORD O'RNATDI

Nyu Jersidan saylangan demokrat Kori Buker AQSh Senatida eng uzoq nutq so'zlash bo'yicha rekord o'rnatdi. U 25 soat davomida prezident Donald Tramp va uning safdoshlari siyosatini tanqid qildi, deb xabar bermoqda AP.



Ma'lum qilinishicha, 55 yoshli Buker dushanba kuni kechqurun minbarga chiqib, jismoniy holati imkon berguncha o'sha yerda qolishini aytgan. U 25 soat-u 5 daqiqadan keyingina nutqini tugatgan. Qayd etilishicha, Bukerni demokrat hamkasblari qo'llab-quvvatlagan, ular senatorga savollar berib, nafas rostdashiga yordamlashib turgan.

YIL MILLIARDERLARI E'Lon QILINDI

Joriy yilning 1-aprel kuni “Forbes” jurnali 2025-yil uchun dunyoning eng boy insonlari ro'yxatini e'lon qildi. Bu yilgi reytingda 3028 nafar tadbirkor, sarmoyador va merosxo'r mavjud, bu – o'tgan yilga nisbatan 247 taga ko'p degani.

Nashrning bu yilgi ro'yxatida 71 yoshli milliarder Alisher Usmonov dastlab O'zbekiston vakili sifatida ko'rsatildi,



so'ng Rossiyaga o'zgartirib qo'yildi. Uning joriy boyligi 16,7 mlrd (+3,4) dollarga baholalanib, reytingning 125-pog'onasida qayd etilgan.

SOBIQ BOSH VAZIR NOBELGA NOMZOD

Pokistonning sobiq bosh vaziri Imron Xon Norvegiyaning Markaziy partiyasi tomonidan Tinchlik bo'yicha Nobel mukofotiga nomzod etib ko'rsatildi. U 2023-yilning avgust oyidan beri qamoqda saqlanmoqda.



Xon 2019-yilda ham Hindiston bilan munosabatlarni yumshatish va Janubiy Osiyoda tinchlikni mustahkamlash borasidagi xizmatlari uchun Nobelga nomzod sifatida ko'rsatilgan edi.

ELLIK MING YILLIK TOSH QUROLLAR TOPILDI

CNN nashrining xabar berishicha, Tibet yassitog'ining janubi-g'arbiy chekkasida joylashgan Longtan yodgorligini o'rganayotgan arxeologlar hududning qizg'ish, changsimon tuproq qatlamida qazilgan ikkita xandaqdan 50-60 ming yil avval yashagan odamlarga tegishli yuzlab tosh buyumlarini topgan.



Tadqiqot guruhi ko'plab asboblarning “Kina” deb ataluvchi uslubda yasalganini aniqladi. Bu uslub neandertallarning arxeologik belgisi hisoblanadi. Ma'lum qilinishicha, ushbu murakkab texnologiya Sharqiy Osiyoda ilgari hech uchramagan.

KUN MAVZUSI

PARLAMENTLARARO ITTIFOQ IJROIYA QO'MITASI YIG'ILISHI BO'LIB O'TDI

Mamlakatimiz poytaxtida parlamentarizm olamidagi eng muhim voqea – Parlamentlararo Ittifoqning (PI) 150-yubiley assambleyasiga tayyorgarlik ishlari davom etmoqda.

3-aprel kuni Toshkentda Parlamentlararo Ittifoq Ijroiya qo'mitasining tashkiliy masalalar yuzasidan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva PI rahbariyatiga, xususan, Ittifoq Prezidenti Tuliya Ekson va Bosh kotib Martin Chungongga Assambleyani O'zbekistonda o'tkazishga rozilik bildirgani uchun minnatdorlik bildirdi. Ushbu tadbirning yurtimizda o'tkazilishi mamlakatimizdagi

demokratik islohotlarning xalqaro darajadagi e'tirofi ekani ta'kidlandi.

Ijtimoiy adolat, kambag'allikka barham berish va zaif qatlamlarni himoya qilish masalalarining dolzarbligi qayd etilib, bu borada parlamentlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhimligiga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, O'zbekiston parlamentining PI faoliyatidagi ishtiroki tobora faollashayotgani e'tirof etilib, Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida”gi BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi tashabbusi PI tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlangani qayd etildi.

– Milliy parlamentimiz, xususan, O'zbekiston Senati jahon kun tartibidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ushbu xalqaro tuzilma bilan bundan buyon ham samarali, konstruktiv muloqotni izchil davom ettirishdan manfaatdor ekanini bildirmoqchiman, – dedi Senat Raisi.

PI Ijroiya qo'mitasi faoliyati yuqori baholalanib, uning parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlashdagi muhim ahamiyatiga urg'u berildi. PI bilan o'zaro hamkorlik doirasida Buxoro va Toshkent shaharlarida xalqaro parlament forumlari hamda Plga a'zo davlatlar parlamentlari ayol rahbarlarining 14-sammiti muvaffaqiyatli o'tkazilgani ham ta'kidlandi.

N.Abduraimova,
O'ZA



MULOHAZA

E'TIQOD OSTONASIDAGI

U yoshlar uchun muqarrar ofat, yurt uchun ulkan xatardir.



Diniy radikalizm. Bu ijtimoiy fenomenga bepisand qarash o'ta xatarli. Hozirga qadar bu yo'nalishdagi urinishlarning deyarli barchasi ayanchli fojialarga sabab bo'lgan. Achinarlisi, keyingi vaqtlarda biror-bir yurtning hududiy yaxlitligi va suverenitetiga raxna solish, uni itoatda tutish uchun diniy radikalizm omilidan foydalanishga urinishlar kuzatilmoqda.

Bugunga kelib diniy radikalizm – istilochilikning yangi turi sifatida “kashf etildi”. Bu illat jamiyat a'zolarining ruhiy holati va xulqida salbiy o'zgarishlarga, tizginsiz ehtirossga, qo'rquv, tahdid yoki axborot manipulyatsiyasi bilan qorishgan ommaviy psixozga ham sabab bo'lmoqda.

Diniy radikalizm ilm-ma'rifatdan ortda qolgan, hunarga rag'bat qilmay, jaholatga botgan xalqlar uchun “Troya oti” singari kulfat manbayidir. Chunki ushbu buzg'unchi g'oya harakatga evrilgach ekstremizm, prozelitizm va hatto diniy missionerlikning tegirmoniga suv quyib, terrorizmga keng yo'l ochadi.

Iqtisodiy tanglik yoki korrupsiya mamlakat taraqqiyoti va mustaqilligi uchun qanchalik jiddiy xatar bo'lsa, diniy radikalizm ulardan-da keskinroq xavf tug'dirib, davlat kelajagini savol ostida qoldirishi mumkin. Buni ayrim mamlakatlar misolida ko'rib turibmiz.

QOLAVERSA...

Har bir ijtimoiy hodisani ilmiy tadqiq etib, o'z manfaati yo'lida qo'llovchilar bor. So'z biror ne'matga zo'ravonlik yoki o'g'irlik orqali ega chiqishni afzal ko'radigan va bu yo'lida har qanday razilikdan tap tortmaydigan kimsalar haqida bormoqda. “Ularning radikallashuv jarayoniga nima aloqasi bor?” degan savolga javob shunday: ular moddiy-ma'naviy ne'matlar va inson resurslariga bo'lgan ehtiyojini to'ldirish uchun shu yo'lni tanlaydi.

Diniy radikalizmni dastaklash uchun boshqa obyektiv va subyektiv sabablar ham bor. Ilm-hunar rivojlanib, jamiyat taraqqiyotiga diniy qarashlar to'siq bo'lmagan, iqtisod va sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalar gullab-yashnay boshlagan davlatlar iste'molchilik qismatidan qutulib, ishlab chiqaruvchiga aylanadi.

Bu esa dunyo bozorini egallab olgan, savdo urushida shafqatsiz, yerosti, yerusti va inson resurslari iste'molida ulkan ehtiyojga ega g'irromlarga yoqmaydi. Ular tayyor boylıkdan ayrilishga indamay rozi bo'ladimi? Albatta, yo'q. Bunday davlatni taraqqiyotdan to'xtatish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi. Gumanitar inqirozni keltirib chiqarish, savdo urushi, oziq-ovqat embargosi, texnika yo xizmatlarga nisbatan sanksiyalar, harbiy cheklovlar qo'llanilib, hatto jahon hamjamiyatini ishonitiradigan biror-bir bahona bilan to'g'ridan to'g'ri bosqin uyushtirishgacha borishlari mumkin. Diniy radikal guruhlarini qo'llab-quvvatlash shunday nayranglar biri bo'lib, u ham bosqingacha keng yo'l ochadi.

DINIY RADIKALIZM ISTILO UCHUN BAHONAMI?

Ha, shunday. Negaki, globallashuv va ommaviy axborot vositalari, kino, musiqa va brendlar vositasida milliy g'oya bilan milliy madaniyatni yo'qqa chiqaradigan, mafkuraviy mustaqillikka tahdid soladigan, axloqni buzib, siyosiy beqarorlikni yuzaga keltiradigan, iste'molchilik ko'nikmasini shakllantirib, iqtisodiy tanazzulga yetaklaydigan “ommaviy madaniyat” omilining “mevasi”ni uzoq kutish kerak.

Qolaversa, biror siyosiy harakat maqsadini belgilab, liderlar va tashkiliy guruh ishtirokida axborot kompaniyasini tashkil etib, kuchli va ta'sirli shiorlar, tamg'alar va ramzlarni ishlab chiqish, puxta strategik reja bilan ish yuritib xalq xayrixohligini qozonish ulkan xarajatsiz bori bo'lmaydi.

Biror-bir yurtni talon-toroj etish maqsadida milliy-madaniy birlikni tanazzulga yetaklaydigan, davlat manfaatlarini zaiflashtiradigan, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni kuchaytirib, vatandarparvarlikni susaytiradigan kosmopolitizm singari g'oyalarni targ'ibi uchun sarmoya tikib maqsadga yetish ham oson emas. Diniy radikalizm omili bilan esa bu maqsadga ancha oson erishiladi. Ongsiz mavjudotlar o'rgatilib, ongli mavjudotlar ishonitirib boshqarilishi inobatga olinasa, istilochilar uchun radikallashuv omilining juda ko'p afzalliklari bor. Turli nayranglar bilan yoqilgan bu gulxan alangalanib olsa bas, keyin o'tin tanlamaydi: ho'l-u quruq baravar yonadi.

CHIRKIN LOYIHALAR SINIVI

Hozirgacha bir qancha davlatlar diniy radikalizmni qo'llab-quvvatlash borasida qon to'kilishi va xo'rlilarga sabab bo'lgan ko'plab loyihalarni sinab ko'rgan. Ularning aksari yo tasodifan, yoki atay ommaga ochiqlab ham qo'yilgan. Misol tariqasida ayrimlarini aytib o'tamiz.

Sobiq Sovet Ittifoqi Afg'onistonga bostirib kirganidan so'ng, 1979–1989-yillar mobaynida AQSh va Buyuk Britaniya maxsus xizmatlari amalga oshirgan “Siklon operatsiyasi” shunday loyihalarning biri bo'lgan.

Afg'on mujohidlarni qurol va mablag' bilan ta'minlab, diniy radikal guruhlarining shakllanishiga ko'mak ko'rsatgan bu loyiha oxir-qibat “Al-Qoida” va “Tolibon” kabi ekstremistik, terroristik

va diniy radikal guruhlarining paydo bo'lishiga olib kelgan. Iqtisodiyot va tinchlik instituti ma'lumotlariga ko'ra, IShID va uning bo'linmalari 2024-yili 22 mamlakatda 1800 dan ortiq kishining hayotiga zomin bo'lgan.

2011–2020-yillarda Suriya hukumatini qulatish maqsadida AQSh hamda Buyuk Britaniya tomonidan Iroq va Suriyadagi diniy radikal guruhlariga to'g'ridan to'g'ri amaliy yordam ko'rsatilgan. Natijada radikal islomiy tashkilot bo'lgan IShID yanada kuchaygan. Ayni vaqtga kelib, 30 mamlakatda faoliyat yuritayotgan IShID va Pokiston toliblari terroristik guruhining kengayishi qayd etilmoqda. 2024-yili 4200 dan ortiq kishi bu guruhlarining qurboniga aylangan.

2011-yili Liviya hukmron rejimiga qarshi bo'lgan diniy radikal guruhlar qurol va mablag' bilan ta'minlangan. Loyiha ustidan nazoratning yo'qotilishi esa bu guruhlarining Liviya davlatiga haligacha davom etayotgan beqarorlikka sabab bo'lgan.

Bunday misollarni yana davom ettirish mumkin.

1977–1981-yillarda AQSh prezidenti Jimmi Karterning milliy xavfsizlik bo'yicha maslahatchisi vazifasida ishlagan taniqli siyosatchi, “Buyuk shaxmat taxtasi” va “Strategik nigoh” singari mashhur asarlar muallifi Zbignev Bjezinskiy o'zining geosiyosiy strategiyasidan kelib chiqqan holda, diniy radikal guruhlarini qo'llab-quvvatlashni yoqlagan. U o'z asarlarida Amerikaning global geosiyosiy maqsadlarini himoya qilish uchun radikal g'oyalardan foydalanish tashabbusini ham ilgari surgan. Keyinchalik u sobiq Ittifoqning Afg'onistonga bostirib kirishiga qarshi diniy radikal guruhlarini rivojlantirish loyihasi oqibatlarini ko'rgach, radikallashtirish loyihalari bo'yicha sinovlarning nazoratdan chiqib ketishi mumkinligini ham tan olgan.

Chunki bunday tajribalar mobaynida qo'llab-quvvatlangan diniy-radikal guruhlar o'z homiylariga qarshi chiqishi natijasida global terrorizm paydo bo'ldi. “Al-Qoida” tashkiloti esa 2001-yil 11-sentyabrda AQShda mislsiz fojialarga sabab bo'ldi.

Diniy radikal guruhlarining kuchayishi Afg'oniston, Iroq, Suriya, Liviya, Yaman, Afrika va Osiyo qit'asi hamda Okeaniya mintaqasidagi ayrim davlatlarda beqarorlikka turki berib, urushlarni keltirib chiqardi. Turli terror aktlarining sodir etilishiga, geosiyosiy keskinlik va harbiy mojaroalarning boshlanib ketishiga olib keldi. Natijada ushbu hududlarda qochqinlar muammosi va gumanitar inqirozlar yuz berdi. Suriya, Iroq, Afg'oniston va Afrikadan millionlab qochqinlar Yevropa va boshqa mintaqalardan boshpana izlashga majbur bo'ldi. Yana millionlab kishilar ocharchilik, turli kasalliklar va zo'ravonliklardan aziyat chekayotir.

XATARLI TARG'IBOT USULLARI

Tahlillar dunyoda bir necha o'n yillardan beri oilalar, millatlar va xalqlar, ayniqsa, yoshlar axborot yordamida radikallashtirilayotganidan dalolat qiladi. Negaki, axborot chindan ham bu borada samarali omil. U feyk – yolg'on xabarlar, dezinformatsiya – qasddan tarqatiladigan noto'g'ri ma'lumotlar, ma'lum bir mafkura, masalan, soxta salafiylik g'oyalari targ'ibini ko'zlaydigan axborot manipulyatsiyasi usullariga ega.

Qolaversa, ma'lum auditoriyaga moslashtirilgan radikal-ekstremistik materiallarning yaratilishi va tarqatilishini ta'minlaydigan diniy radikal kontentlarni ommalashtirish usuli ham bor.

Internet orqali radikallashtirish usuli esa turli bot hamda radikal qarashlarni ommalashtiruvchi “troll fabrikalar”, kiberjang va hakerlik harakatlaridan radikal g'oyalarni muhokama qilish va tarqatish uchun hissa qo'shishi mumkin bo'lgan maxsus guruhlar va forumlarning platformalaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, hissiy va psixologik ta'sir usuli ham mavjud. Unda jamiyatda xavotir hissini kuchaytirish uchun tahdid omilidan foydalanish, “Biz va ular” konsepsiyasi vositasida yoshlarni radikallashtirish va radikal harakatlarni keng yoyish ko'zda tutiladi.

Yana madaniyat va ta'lim, ijtimoiy fanlar, filmlar, musiqa hamda adabiyot vositasida mutaassib qarashlarni shakllantirish usuli ham uchraydi. Hozirga qadar tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan bu usullar radikalistik, ekstremistik va terroristik targ'ibot loyihalarini amalga oshirishda o'z buyurtmachilariga sezilarli qulaylik bergan. IShIDning onlayn targ'ibot loyihasi bunga yaqqol misoldir.

O'z vaqtida IShID ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarni jalb qilish uchun maxsus media markaz tashkil qilib, forumlar va bir qancha mobil ilovalar orqali ish yuritgan. Bu harakat hanuz davom etmoqda.

“Al-Qoida” terroristik tashkilotining “As-Sahab” media markazi global radikallashuvni qo'llab-quvvatlash uchun minglab targ'ibot materiallarini ishlab chiqqan. “Al-Qoida”ning Somalidagi “Ash-Shabbob” yoki Yamandagi “Arab yarimoroli” qanotiga qarashli media markaz hanuz faol.

TANGANING ORQA TOMONI

Ichki ishlar vazirligi ekspertlari bergan ma'lumotlarga ko'ra, nashidaga o'xshash qo'shiqlar bilan radikallashtirish usuli ishlab chiqilgan va u bir necha bosqichdan iborat. Bunda dastlab marom va ohangi uyg'un, kishi ruhini ko'taruvchi musiqa yaratiladi. Mumtoz nashidalardan farq qilmasligi uchun ularga hamohang bastalanadi. Shu bois arab tilini tushunmaydiganlar uni oddiy nashida deb o'ylab, yodlab olgisi keladi.

Bu jarayon tinglovchi bilan psixologik aloqa o'rnatish deb ataladi.

Keyingi bosqichda nashida kirill yo lotin yozuvida tarjimasiz transkripsiya holda tarqatiladi. Natijada nashida matnini o'qigan aksar kishi uni yodlab oladi. Nashida g'oyasi ongi ostidan shu tariqa joy egallaydi.

Uchinchi bosqichda esa aqiddan yiroq, radikal diniy qarashlar bilan to'yingan “nashida”ning arab tilidagi matni tarjimasiz bilan tarqatiladi. Bu bosqichga yetib kelgan kishi manipulyatsiya natijasida radikalistik, terroristik va ekstremistik qarashlarga moyil bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasining bunga qarshi kurashishni ko'zda tutgan qonuniga ko'ra, bunday “nashida”larni eshitgan va tarqatganlar bilan dastlab profilaktik suhbat o'tkaziladi. Bu hol yana takrorlansa, ma'muriy javobgarlik, undan keyin esa jinoy javobgarlik qo'llaniladi.

Ayrimlar buni o'ta qattiq choraday talqin etadi. Ammo unday emas. Aslida hozirga qadar o'ta qattiq choralar faqat radikal g'oyalar hukmron bo'lgan hududlarda kuzatilgan. Bunday joylarda terroristik g'oyalarga zid materiallarni tarqatgan, saqlagan, tinglagan va ko'rganlar so'zsiz qatl etilgan. Bunga inkor qilib bo'lmaz dalillar bor.

BUGUNGI “QADIMCHILAR”

Jaholat ildiz otgan ijtimoiy muhit diniy radikalizm uchun juda qulay. Diniy qarashlar bilan o'ta uyg'unlashgan milliy qadriyatlarga, an'analar va urf-odatlariga “patologik xasta” darajasida sadoqatli, biror-bir radikal oqimga qattiq bog'langan, na diniy, na dunyoviy ilmi bo'lmagan, dunyoqarashi “rahnamo”lar ta'sirida shakllangan, arabcha aytganda “Sami'na va ato'na”, ya'ni “eshitdik va iqror bo'ldik”, degan tamoyilga amal qiluvchi kishilar radikal muhit gulxaniga moy sepuvchilardir (o'xshatish hidoyatga boshlovchi dinga, sog'lom aqidadagi kishilarga taalluqli emas).

Bunday kishilar mutaassib dindorlar tufayli XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Tatariston va Qoqozda faoliyat ko'rsatgan “qadimchilar”ni esga soladi. Bu harakat a'zolari jadicdacha islohotlarni diniy an'analarga zid deb bilgan uchun Turkistonda og'ir oqibatlariga olib kelgan fitnalarni sodir bo'lgan edi.

Bugun o'zini jamiyatdan ajratib, o'lkada keng tarqagan mazhabga ergashmayotgan, kiyinish va xulq-atvorda “g'alat”lik kasb etgan, davlat xizmatini nojoiz sanab, ayollarning ta'lim olishini va hunar egallashini istamayotgan, miyasi “Avgiy obxonas”idan farq qilmay qolgan kishilarning o'sha “qadimchilar”dan nima farqi bor?

SOXTA DA'VATCHILAR

Radikal da'vatchilarga ergashishdan naf undan istilochilikning bir usuli sifatida foydalanib turganlarga, yana dinni tijoratga aylantirgan soxta da'vatchilarga bor, xolos. Garchand ularning aksari xorijda bo'lsa-da, internet yordamida yurt ichida ham radikal diniy g'oyalarni targ'ib etayotgani bois ichki va tashqi tahdid sanaladi.

Imom Shofiyy rohimahullohning “Qirq olimni bir dalil bilan yengdim, bir johilni qirq dalil bilan yengolmadim”, degan gapi virtual olamda onlayn voizlik qilayotgan radikal da'vatchilarga nisbatan aytilganday, go'yo. Ularga ishonib juvonmarg bo'lganlar esa son-sanoqsiz.

ALOHIDA TA'KIDLASH LOZIM BO'LGAN YANA BIR OMIL

Bugun mamlakat miqyosida olti yuzga yaqin nashriyot diniy adabiyotlarni nashrga tayyorlash bilan shug'ullanmoqda. O'ttizdan ortiq nashriyot diniy adabiyotlarni tayyorlash va tarjima qilish bilan faol shug'ullanadi.

Bu nashriyotlarda kimlar xizmat qilayotgani, diniy bilimga ega muharrirlar, musahhihlar, dizaynerlar, sahifalovchilar bor yo yo'qligi, chop etilayotgan diniy adabiyotlarda aqida, mazhab, tariqat masalalariga nechog'li e'tibor qaratilishi, so'z o'yinlari yo ochiq-oydin talotliklar bilan singdirilishi mumkin bo'lgan diniy-

mafkuraviy g'oyalarga nisbatan muharrirlarning hammasida ham immunitet bor-yo'qligiga ijobiy javob yo'q. Shuning uchun diniy mavzudagi kitoblarni nashrga tayyorlash va tarqatish bilan shug'ullanadiganlarning faoliyati muayyan talablar bilan alohida litsenziyalanadigan faoliyat turiga aylantirilsa el uchun xayrli bo'lardi.

NIMA QILMOQ KERAK?

Biror bir axborot manbayini to'sib qo'yish muammoni hal qilmaydi. Radikal g'oya targ'ibotchilari bilan virtual poligonda yuzma-yuz turish lozim. Bu ularga basma-bas tayyorlanadigan media mahsulotlar bilan amalga oshiriladi. Shu bois virtual olamda faol axborot manbalarining bu kurashdagi o'rni beqiyos. Afsuski, o'zbek tili kontentlarning ahvoli kishini mamnun etmaydi. Ushbu yo'nalishda xizmat qilayotgan ayrim markazlarda internet yo'nalishini nazarda tutgan shtat birliklari yetishmasligi sababli “hashar” bilan ish tutiladi. Qolaversa, tahlil, surishtiruv, teleocherk, radioocherk, televizion esselar, hujjatli filmlar, qahramonning psixologik kechinmalari va xulosalarini ochiqqaydigan film-portret janrlarida media mahsulotlar yaratish borasidagi ijodiy tashabbuslar byurokratik to'siqlar tufayli amalga oshmay qolayotgan holatlar ham yo'q emas.

Diniy radikalizm hodisasi huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, geosiyosiy, diniy-ma'rifiy tahlillarda aks etgan davra suhbatlar, tok-shoular va podkastlarga internet nashrlari, teleradiokanallar, gazeta va jumallardan o'rin ajratilishi yoshlarning mohiyatni anglashida juda muhim.

Negaki, radikal g'oyalar “25-kadr” nazariyasi, ong osti targ'iboti, neyrolingvistik dasturlash, “Metafora va tarixiy analogiyalar”, “taqiqlangan meva effekti” singari yuzlab usullar bilan singdirilmoqda. Shu bois axborot-tahlil va media markazlar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari tasarrufidagi ommaviy axborot vositalarining rolini inobatga olgan holda harakat qilish vaqti yetdi.

MUVAFFAQIYATLI QADAM

So'nggi yillarda “jaholatga qarshi ma'rifat” g'oyasi ostida reabilitatsion xarakterdagi suhbatlar tez-tez tashkil etilmoqda. Bu holat diniy-ma'rifiy muhitni sog'lomlashtirishda muvaffaqiyatli qadam sifatida e'tirof etilishi shart.

Nega?

Tasavvur qiling: ulkan to'yxonadasiz. Hofizlar quloqni qomatga keltiradi. Birga o'tirganlar bilan suhbatlashish nari tursin, hol so'rash ham amrimahol. Axborot tarqatish va qabul qilishda bugungi jamiyatning ahvoli ham shunday.

Soni bir necha minglarni tashkil etayotgan axborot manbalari: veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, teleradiokanallar, gazetalarni, jumallarni va kitoblarni sabab zarur chaqiriqni, ogohlantirishni yo maqto'vni o'z vaqtida ilg'ab olish imkonini kam.


Xo'sh, shu holda kimqadir zarur gap qanday yetkaziladi? Oldiga borib, qulog'iga shivirlanadi, albatta. Targ'ibot tadbirlari va reabilitatsion xarakterdagi suhbatlar ham shunga o'xshaydi. Har qancha shovqinga qaramay, kerakli kishiga atalgan gap aniq yetkaziladi.

Voizning iqtisodiy, siyosiy, geosiyosiy, gumanitar, etnik, irqiy, diniy va g'oyaviy-mafkuraviy jihatlarini puxta bilishi esa unga ustunlik beradi. Voiz vazifasi maxsus guruhlardan tashqari, gohida ziyolilarning va jamoatchilik hamda mahalla faollarining ham zimmasiga tushadi gohida. Demak, ularning, yana jamiyatning ma'lum bir qatlami bilan muloqotda bo'lish imkoniga ega bo'lgan boshqalarning, blogger va vlogerlarning diniy radikalizm borasidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytiradigan qisqa muddatli malaka oshirish o'quvlariga e'tiborni yanada kuchaytirish, bunda asosiy urg'uni huquqiy bilim berishga qaratish lozim. Chunki sodir etilayotgan diniy ekstremistik mazmundagi jinoyatlarning aksari (ayniqsa, layk bosish va tarqatish) huquqiy bilimning yetishmasligi natijasida sodir etilmoqda.

NEGA AYNAN KINOCILAR?

Birinchidan, tomoshalarning eng katta qismi seriallarga to'g'ri keladi. Ikkinchidan, tomoshabinning aksari uy bekalarini – ayollarni. Uchinchidan, bola tarbiyasi, bilim, axloq, e'tiqodiga otadan ko'ra ko'proq ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan onalarni unutmilik lozim. Chunki yoshlar ongini egallashga harakat qilayotgan radikal g'oyalarga qarshi kurashda xolis axborot bilan qurollangan onalardan ko'ra yaxshiroq kurashchi yo'q.

Tadqiqotchilar seriallar, multfilmlar va badiiy filmlarning diniy e'tiqodga, psixologiya va dunyoqarashga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirini allaqachon isbotlashgan. Yillab davom etadigan seriallar sog'lom yoki radikal yoxud axloqqa zid g'oyalarni



“TROYA OTI”



singdirishi mumkin. Katta hajmda tayyorlanib virtual olamga sizdirilayotgan salbiy media mahsulotlarning oqibatini bartaraf etish uchun kino sohasi vakillarining malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratish shart.

Diniy mavzudagi video va audioroliklarning kuzatuvchisi ko'p. Bu e'tiqodni tijoratga aylantirgan kimsalarga qo'lib, dunyoviy ilm-hunar va bank xizmatini boykot qilishga chaqiradigan, dunyoviy davlat tuzumini inkor etib, jinoyatga undaydigan roliklarning urchishiga sabab bo'lmoqda. Shunday ekan, ularga nisbatan "g'oyaga qarshi g'oya" usulida javob qilish, milliy seriallarning e'tiqodga, axloqqa, ta'lim-tarbiya va dunyoqarashga ko'rsatadigan ijobiy imkoniyatidan foydalanish lozim. Toki yaratilayotgan seriallar va yozilayotgan ssenariylar bu omilning jamiyat uchun qanchalik xatarli ekanini onalarga anglata olsin.

– Qo'shningning bittagina o'g'li bor, – deydi bir do'stimiz, – hovlisida baqir-chaqir bo'lganini yoki kim bilandir "sen-men"ga borganini ko'rmaganmiz. Shu kishiga ko'z tegib, internetdagi mutaassib bir voiz ta'siriga tushgan kelin "hunar" chiqardi. Eriga "ota-onangizga xizmat qilishga shar'an majbur emasman", debdi. Uydian janjal arimay qoldi.

U bo'ldi, bu bo'ldi, xullas, ish ajrimgacha bordi. O'rtada ikki go'dak bor. Oxiri ota-ona "go'daklar bo'zlaguncha biz o'z kunimizni ko'raylik", dedi shekilli, o'g'ilni qoldirib ko'chib ketishdi. Keyinroq kelin reabilitatsiya guruhi vakillaridan biriga yo'liqibdi. Natijani qarang, qaynota-qaynonasidan kechirim so'rab, qaytarib olib kelishdi.

Bu gap biroz bo'rttirilgan, mubolag'aga qorishganga o'xshar, ehtimol. Ammo aksariyat oilalar bu kabi muammolar bilan yuzma-yuz kelayotgani bor gap. Ijodkorlar va ziyolilar bilan bo'lgan uchrashuvda ana shunday jihatlamni nazarda tutgan Prezidentimiz "O'zbekistonda adabiyot va san'at, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, ma'naviyat va ma'rifat biznesga aylanmasligi shart", deb ta'kidlagan edi.

MUNOZARALARNING OQILONA YECHIMI

"Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi – millat, xalq va davlat rivojiga keng yo'l ochayotgan davlatimiz rahbarining jamiyatdagi turli hodisalarga nisbatan ma'rifiy yondashuvidan darakdir.

Bu yondashuv "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonunning imzolanishiga sabab bo'ldi.

Ushbu qonun fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati, vazifalari, prinsiplari hamda ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Fuqarolarning vijdon erkinligiga bo'lgan huquqlarini kafolatlash, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o'tasida o'zaro murosa va hurmatni ta'minlash, konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag'rikenglik va dunyoviylikni qaror toptirish bu qonunning asosiy maqsadlaridan biridir.

Konsepsiya qabul qilingungacha bo'lgan jarayonda diniy radikal g'oyalardan manfaatdor kimsalar, ekstremistik harakatlar va radikal oqim vakillari hamda teran tafakkurdan mahrum kimsalar fitna va ikkilanishlarga xizmat qiluvchi gap-so'zlarni o'rtaga tashladi. Hatto ba'zi ommaviy axborot vositalari bu holni e'tiqod erkinligini bo'g'ish yoki cheklash sifatida talqin etdi.

Bunday qarashlar biryozlama, millat va davlat manfaatlariga xizmat qilmaydigan, fitnaga moyil fikrlardan iborat edi. Aslida, hech bir mustaqil davlatga alohida mavzular va yo'nalishlar bo'yicha konsepsiya yo doktrina qabul qilishni o'z Konstitutsiyasi ham, xalqaro huquq me'yorlari ham man etmaydi. Zotan, shu me'yordan kelib chiqib, davlatning din borasidagi siyosati yuzasidan turli bahs-munozaralarga nuqta qo'yadigan, turli ziddiyatlarga barham beradigan, e'tiqod erkinligini qat'iy kafolatlab, diniy-ma'rifiy muhitni mustahkamlaydigan qonuni qabul qilindi.

Unutmaylik, O'zbekiston – ilm-hunar taraqqiysiga ulkan e'tibor qaratayotgan, g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlarga ma'rifiy yondashuv bilan javob beradigan, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Bu yurtda tushunchalar bilan emas, qonunlarga asosan ish yuritiladi. "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonun esa shu tamoyil asosidagi davlat va din munosabatlarini belgilaydi.

Konsepsiya borasida so'zni bunchalik olisdan boshlamay, kichikroq bir munosabat bilan ham kifoyalanish mumkin edi. Ammo Yangi O'zbekiston Prezidentining "Biz jamiyatimizda har qanday radikalashuvga, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaymiz", degan so'zlari bunday qilishga izn bermadi.

Shuning uchun diniy radikalizm muhiti olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar haqida, amalga oshirilayotgan ishlar va yechimini kutayotgan masalalar to'g'risida batafsil so'z yuritgimiz, bu Konsepsiyaning xalqimizni ana shunday oqibatlardan himoya qiluvchi manbaga aylanishi mumkin ekanligiga dalolat qilgimiz keldi.

Negaki, radikallashuvning hech bir ko'rinishi bashariyatga baxt olib kelmaydi. O'z taraqqiyoti va farovonligini diniy radikalizmde deb o'yaganlar mutaassibona boshqaruvning qurboniga aylanayotganini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. E'tiqod erkinligi bilan diniy radikallashuv bir-biridan tubdan farq qilishini ulardan yaxshiroq anglagan kishi bormikan?!

ANGLAGANNING IQRORI

Uch-to'rt yil muqaddam O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida diniy radikalizm muammosi sababli o'z yurtidan majburiy chiqib ketib, bizdan vaqtincha qo'nim topgan bir olimdan intervyu oldik. Iltimosiga ko'ra, uning shaxsini ochiqqlamaymiz.

– Mamlakatingiz ko'p yillardan beri urush girdobida. Gohida bu yurtda hech tinchlik bo'lganmi, deb o'ylaymiz. Jamiyatingizning shu ahvolga kelib qolishiga nima sabab bo'lgan? – deb savol berdik u kishiga.

Savoldan suhbatdoshimizning ko'zlari yoshlandi. – Bir vaqtlar mening yurtim ham sizniki kabi osoyishta edi, – dedi so'ng izzitrob bilan. – Ayol-qizlar maktablarda, kollejlarda yoki universitetlarda o'qirdilar, erkak-ayollar barobar mehnat qildirdilar. Bolalarning ham, ayollarning ham huquqlarini qonun himoya etardi. Kimning ko'zi tegdi, bilmayman. Bir zamonga kelib, qonunlar bilan emas, diniy tushunchalar bilan ish ko'rish urf bo'ldi.

Ikki-uch yilda vaziyat shu darajaga yetdiki, shariat sudlarining faoliyatiga rasman ruxsat berildi. Mardum (odam) davlat sudiga boradi, isboti yo'q. Yutqazadi. Shariat sudiga uch kishini ergashtirib "mana shular guvoh" deb borsa, bas, foydasiga hukm chiqadi. Bora-bora shunchalikka yetdiki, shariat sudi oldida "guvohlar bozori" paydo bo'ldi. Savdolashib, "guvoh" bilan sudga kiraverasiz. Natijada davlat sudiga ehtiyoj qolmadi.

Dunyoning ilmini nazar-pisand qilmay, diniy ta'limga zo'r berdilar. Shunchalikki, bir qishloqda kamida o'nta hujrachi. Ziyolilar ham, ahli ilm ham, ota-onaning aksari ham bu holatdan cho'chish o'miga mamnun bo'ldilar. Ana ahvol! Keyin yurtga yov kirganda u bilan savashishga na qurol topdik, na ilimga tayangan aqliy salohiyat.

Hozir esa kimnidir do'pposlatib o'ldirib yuborish uchun olomonga bir og'iz yolg'on kifoya. Qariyb ellik yildan buyon hali unisi, hali bunisi kirib vatanni payhon qiladi. Na ta'limni, na sanoatni, na iqtisodni tiklashga imkon beradilar. Asli bandalarga hidoyat bo'lgan din mutaassiblar tufayli yurtimizni halokatli oqibatlarga tiki...

Qochqinlik qismatiga aylangan olimni tinglab, jaholat ta'limga, tarbiyaga, g'oyalar va mafkuralarga singa boshlagan joyda inson uchun faqat fojiani kafolatlash mumkin ekan, degan xulosaga kelgan edik o'shanda.

XULOSA

Imom Moturidiy zamonlaridagi buzg'unchi oqimlar ham asl mohiyatiga ko'ra bugungi radikal oqimlardan katta farq qilmagan. Ularning barchasi dindan jamiyat ichida fitna qo'zg'ash, xalqni parokanda qilish va davlatni zaiflashtirishda shunchaki bir omil sifatida foydalanog'an.

O'z davrida Mo'tazila, Jahmiya, Qadariya, Xavoriylar va kelib chiqishi shia mazhabiga bog'lanuvchi G'ulot firqalari ulkan fitnalarga sabab bo'lgan. Bugun o'sha fitnachilar o'rini soxta salafiylilik, "Hizb ut-tahrir al-islomiy", "Al-Qoida", IShID, "Musulmon birodarlari", "Boko Harom", "Ash-Shabbob" singari harakat va oqimlar egallagan.

Shuning uchun diniy radikallashuv omiliga qarshi kurashga eng avvalo ota-onalar hushyor bo'lishi, bolasi foydalanayotgan manbalarni kuzatib borishi, ularning qanday saytlarga, qaysi ijtimoiy tarmoqlarga, kimning shaxsiyatiga qiziqayotganini e'tiborsiz qoldirmasligi lozim.

Endi esa mulohazalarga yakun yasaymiz. Yangi O'zbekistonning so'z erkinligi borasidagi xalqchil siyosati bergan imkon tufayli ijtimoiy hodisa bo'lgan diniy radikalizm haqida uzunroq so'z aytdik. Bundan ko'zlangan maqsad Vatanimizga, millatdoshlarimizga, xalqimizga ezigulik sog'inisdir. Negaki, Prezident Shavkat Mirziyoyev aytganidek, "Barhamiz uchun Vatan bitta. Bizni yagona, ulug' bir maqsad birlashtiradi. U ham bo'lsa, yurtimiz tinchligi, Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligidir".

Abdulhamid MUXTOROV,
"Ziyo" media markazi direktori

TANLOV

Har yili respublika miqyosida o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi Yoshlar ishlari agentligining o'ziga xos loyihalaridan biriga aylandi. Yil davomida tavsiya qilingan asarlarni o'qib, uqib, anglab, o'zini tengqurlari bilan bo'ladigan bilimlar sinoviga hozirlagan yosh kitobxonlar bu yil Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi "Yoshlar kutubxonasi"da uchta yosh toifasi bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Dastlabki yillarda g'olib bo'lgan yosh kitobxonga mamlakat Prezidentining sovg'asi – "Spark" avtomashinasi taqdim etilgan edi. O'tgan yili har uch yosh toifa g'oliblariga "Cobalt" taqdim etildi. Bu yil esa g'oliblar "BYD" kompaniya-yoyilmasining qimmatbaho "Chazor" avtomashinasi egasi bo'lishdi.



“YOSH KITOBXON”ning mumtoz martabasi

G'olib kitobxon tufayli butun boshli qishloqning nomi mamlakat ahlining e'tiboriga tushishi, kitob o'qigan bitta o'quvchisi tufayli bir qancha maktablarning respublikaga tanilishi, kitob o'qigani ortidan mashina olgan ma'rifati kelinlar qaynona-qaynotalari ardog'iga sazovor bo'lishi, mutolaa ortidan bugungi o'quvchi ertaga hech qiynalmasdan oliy o'quv yurtlarining old talabalari safidan o'r'in olishlari – bularning bari "Yosh kitobxon" tanlovining mumtozligini ta'minlaydi. Tanlov haqqoniyatini, hakamlar bahosining odilligini, eng muhimi, mamlakatning turli hududlarida o'nlab ma'naviyat buloqlari ko'z ochayotganini, shuningdek, qalbi shijoatga to'la yoshlar orzulari ro'yobining tantanasini ham ifoda etadi. Yoshlarning orzusi – ulug', bu muhtasham orzu mehnat-mashaqqat tufayli reallashadi. Katta yoshdagi qatnashchilar hayot yo'llarida o'sha maromda davom etadi, ammo tanlov tufayli nisbatan yosh o'quvchilarning tafakkur olamida bepoyon ufqlar ochiladi. Yaxshi-yomonni farqlaydi. Maqsadlari aniqlashadi. O'zlariga ishonch ortadi. Ular tanlov kunlari do'stlashib, kelgusidagi orzulari – kasb tanlash, o'qish, katta hayot yo'li borasida o'zaro maslahatlashayotganiga ko'p bora guvoh bo'ldim. Ota-onalari bilan suhbatlashdim. Farzandi tufayli ular hududdan hududga, viloyatdan viloyatga o'tib, bolalari tanlagan do'stlarining uyiga mehmonga borishmoqda. "Yosh kitobxon" loyihasi yoshlar orasidagina emas, balki muallim va ota-onalar, oilalar

lari yoshlandi. Muhim bir jihati, O'g'iljayron to'rtko'llik turkmanlardan; o'rta maktabni turkman tilida o'qigan. O'zbek tilini mukammal bilishi, nutqi, ifoda tarzi, to'g'risi, har kimning havasini keltiradi. Bu holatga o'zi yashab turgan zaminga, Vatanga, shu mamlakat ahlining ona tiliga ehtiromi tufaylidir, deb baho berdim. "Yosh kitobxon"ning ko'p millatli maklakatimiz xalqlari, yoshlari o'rta-sidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlashi shundan ham ko'rinadi. Mamlakatimizdagi boshqa ko'plab millat yoshlari shu g'olib qizdan ibrat olsa bo'ladi.

Tanlov bahsida o'zaro raqobat-chiga o'xshab ko'ringan yoshlarning ko'ngli orasta. Qalbi oq qog'ozdek pokiza. Bu oppoq qog'ozdagi bitiklarni hech qiynalmasdan o'qiyisiz, uqasiz, albatta. Unda bebaho odamiylik orzularini anglatguvchi tushunchalar – Kitob, Insoniylilik, Vijdon, Do'stlik, Tinchlik, Ishonch tarzida katta harflar bilan yozib qo'yilgan. "Yosh kitobxon" tanlovi xalqimiz oldida aynan xolisligi, adolatligi ortidan ishonch qozondi, ehtiromga sazovor bo'ldi. Ishonch va ehtirom so'rab olinmaydi, u amalda ish ko'rsatib, qozoniladi.

Yosh kitobxonlarni tashkilotchi mas'ullar keyinchalik ham unutil qo'ymasliklarini istardim. O'z vaqtda bilimi, zukkoligi, o'tkir zehni bilan yulduzdek chaqnagan va tengqurlariga ibrat namunasi bo'lgan bu yoshlarning hayotda o'z o'rini topgani, ta'limi, ruhiy-ma'naviy-oilaviy turmush tarzi shaxsan

maydonga keldi; aka-ukalar, opa-singillar bir-biriga ergasha boshladi. Oila muhitida o'zidan katta opasi yo akasi kitob o'qiyotganini ko'rgan kichiklar, tabiiyki, bu mashg'ulot sababiga qiziqadi. Kitob sirtiga nazar soladi, mazmunini kattalardan so'raydi. Sekin-asta o'qishga kirishishi ham bor gap.

Tanlov shartlari ham yildan yil takomillashib bormoqda. Bir yili ishtirokchilar insho yozib, yozma fikr bayoni, imlo, husnixatga diqqat qaratilsa, boshqa yili "Boshqotirma" sharti qo'yiladi. Bunda ramzlarga qarab, chuqur mantiqiy fikrlash orqali harflar kataklarga joylanadi. Natijada so'z paydo bo'lishi kerak. Tanlov mahali ba'zan yoshlar kayfiyatini ko'tarishga to'g'ri keladi. "Farangizga qarangiz", deb qo'yadi hakamlardan biri. Boshqasi "Bo'lsang ja zo'r, ana, "Chazor", deydi. Tabiiyki, bunday vaziyatlarda hakamlarning samimiyatidan ishtirokchilar mamnun jilmayadi; chuqur nafas olib o'zlarini yengil his etadilar. O'tgan bir yili tanlov boshlovchisi menga: "Domla, boshqa hakamlardan farqli baho qo'yardingiz. Endi nisbatan bir xillashdi bahongiz", dedi. "Bir o'zing dono bo'lguncha, hamma qatori devona bo'l", deb hazillashdim men ham.

Jiddiy gap shuki, har yili "Yosh kitobxon" loyihasida bir millionga yaqin yoshlar qatnashmoqda. Ular orasidan qirq ikki nafari respublika bosqichida g'olib bo'lib, Prezident sovg'asiga erishmoq uchun maydonga chiqadi. "Emas oson bu maydon ichra turmoq..."

Respublika bosqichida qatnashgan har bir ishtirokchiga 10 million



o'rtasida ham do'stlik, qadrdonlik rishtalarini bog'lashga xizmat qilmoqda.

Bu yilgi tanlovda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi O'g'iljayron Xoldurdiyeva 15-19 yosh toifasida g'olib chiqib, elektromobil sohibasi bo'ldi. Otasi oddiy dehqon, chorvador. Ko'rishdim, otaning qo'llari mehnatdan qadoq bo'lgan. Qizini halol mehnati ortidan ulg'aytirib, o'qityapti. U hali haydovchilik guvohnomasi ham olmag'an. Shu choqqacha shaxsiy mashinasi ham bo'lmagan ekan. Qiz ulkan sahnada mashina kaltitini otasiga berganida uning quvunchdan ko'z-

men uchun qiziq. Chunki ulardan aksariyatining orzu-niyatlaridan bo-xabarman. Ular o'z qismatini kitob, ta'lim, tarbiya, til o'rganish bilan bog'lashgan. Nazarimda, ularni yilda ora-ora jamlab, maxsus anjumanlar o'tkazish, davr allomalarining "hayot saboqlari"dan bahramand etish har tomonlama foydali bo'lar edi. Chunki butun vujudi yoshlikning g'ayrat-shijoati va ko'ngil hayrati bilan to'la yoshlar uchun hayotda namuna bo'larlik ideallar zarur; ularning maqsadlari amalga oshishi uchun g'oyalar kerak. Bu esa hayot tajribasiga ega, chin ma'nodagi haqgo'y va vijdonli ziyolilar – allomay zamonlar bisotidan topladi.

Tanlov tufayli oilaviy kitobxonlar

so'm; uchinchi o'r'in egasiga 50 million so'm; ikkinchi o'r'in uchun 75 million so'm mukofot puli beriladi. Birinchi o'r'in egalari esa, tabiiyki, Prezident sovg'asiga egalik qilishadi. Qadrii yoshlar, "Yosh kitobxon" loyihasi, uning mehnat-mashaqqati va oxir-oqibatda kitob o'qish ortidan keladigan zavq-shavq, surur, quvonch va shon-shuhrat sizni ham kutib turibdi.

Muhtaram boshlovchimiz aytmoqchi: "Kutubxona to'la kitob, zavod to'la avtomashina! Kitob o'qigan avtomashina minadi!"

Bahodir KARIM,
"Yosh kitobxon" respublika tanlovi hakamlar hay'ati raisi



Boshlanishi 1-sahifada.

Shuni aytish lozimki, “Temur tuzuklari” uzoq yillar davomida qog’ozga tushirilgan, vaqt o’tishi bilan qayta-qayta ko’rilgan, qisqartirilgan, to’ldirilgan, yana davom ettirilganday taassurot qoldiradi. Arab olimi Mazhar Shihobning quyidagi so’zlarida jon bor: “Esdaliklar yozishni Amir Temur hokimiyatga kelishidan ancha muddat oldin boshlagan...” (*Ubaydulla Uvatov. “Sohibqiron arab muarrixlari nigohida”. –T., 1997. 133-bet*). Ehtimol, Sohobqiron o’zi va saltanati tarixini, to’ra-tuzuklarni qog’ozga tushirishni birovga topshirishni istamagan yoki biron kishini shunga munosib ko’rmagandir...

O’xshash vaziyat keyinroq mashhur davlat arbobi va muarrix Abulg’oziy Bahodirxon bilan ham yuz bergan edi. Xiva xoni millat uchun bag’oyat muhim “Shajarayi turk” asarini o’zi yozishga majbur bo’lgandi. Bu haqda Abulg’oziy asar so’zboshisida shunday deydi: “Bu tarixni (*“Shajarayi turk” nazarda tutilmoqda – M.A.*) bir kishiga taklif qilali, teb fikr qilduq. Hech munosib kishi topmaduq. Zarur bo’ldi. Ul sababdan o’zimiz aytduq. Turkning masali turur: “O’ksiz o’z kindigin o’zi kesur, tegan...” (*Abulg’oziy. “Shajarayi turk”. –T., 1992. 11-bet*).

Hayotiy hikmatlarga boy “Temur tuzuklari”-ning noyob ma’rifiy obida ekanligidan tashqari, Amir Temur siymosi, boy shaxsiyati va insoniyligi haqida bergan ta’riflari bilan ham e’tiborlidir. Biz “Tuzuklar”da Amir Temurni adolatni himoya qilguvchi, so’zi bilan ishi bir, olijanob, kechirimli, dovyurak, zo’r tadbirlar sohibi, mohir sarkarda, ulug’ rahbar sifatida ko’ramiz. U zolimlardan mazlumlar haqini olishda jonbozlik qiladi, chunki biladi – mamlakat kufri bilan turishi mumkin, ammo zulmga chiday olmaydi...

Sohibqironning savodi masalasi haqida batafsilroq to’xtalish joiz. Bu borada mashhur tarixchi Hafizi Abro’ga murojaat qilsak to’g’riroq bo’ladi. O’zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov o’zining bir maqolasida Hafizi Abro’ning “Zubdat ut-tavorix” asaridan shunday parcha keltiradi: “Amir Sohobqiron maktabda o’z tengqurlaridan saboqda o’zib ketardi. Balog’at yoshiga yetguncha ilm, adab, xat va suhanvorlik kasb etdi... Undagi teran bilim shijoatga payvand bo’ldi va shundan so’ng amirlik mansabini egalladi...” (*“Temur tuzuklari”, –T., 2005. 141-bet*). Bu bir misol.

Diqqatni Amir Temurning asrdoshi Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” – nafislar, ya’ni she’r, keng ma’noda ijod, san’at oshnolari majlisiga bag’ishlangan kitobiga qarataylik. Navoiy kitobning yettinchi majlisini Amir Temur Ko’ragon nomi bilan boshlaydi. Navoiy Sohobqironni ziyoli, ma’naviyati yuksak inson sifatida ko’radi va unga “nafislar” orasidan eng martabali joyni ajratadi. Sohobqironni ta’riflar ekan, Navoiy yozadi: “Temur Ko’ragon, agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo’b mahdal va mavqe’da o’qubdurlarkim, aningdek bir bayt o’qug’oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor...”

Shubhasiz, biz Amir Temur haqida undan to’rt yuz ellik yillar keyin yashagan olimlarning emas, balki Sohobqironning asrdoshi bo’lgan muarrix va shoirlarning ma’lumotlariga ishonamiz.

Sohibqiron tarixni, tarixiy asarlarni yaxshi ko’rardi, ularni o’qish, ular haqida muarrixlar va olimlar bilan qizg’in suhbatlar o’tkazishni kanda etmas edi. O’zi niyat qilib ikkita kitob yozdirdi. Shuni ta’kidlash kerakki, davlat boshiga kelganiga 28 yil bo’lgandagina, Sohobqironida ilk bor saltanat va o’zi haqida kitob yozdirish fikri tug’ildi!

Amir Temur yoziladigan asar haqqoniy bo’lishi haqida qattiq qayg’uradi. Bu ma’noda Sohobqironday donishmand, yuksak ziyoli siymoning mualliflarga ko’rsatmalari, yo’llar-malari, talablari, maslahatlari, fikr-mulohazalarini kuzatish bag’oyat maroqliidir.

Chunonchi, Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” asarida quyidagilarni yozgan edi: “... Garchi ul zot qilgan ishlarning bu abadiyatga ulangur davlatning boshlanishidan tortib, to hozirgi kungacha bo’lgan tarixini onhazrat uchun yozgan bo’lsalar ham, ammo ular munosib tarzda jamlanib taqdim etilmagan ekan; bu banda ularni yig’ib, ortiqcha so’zlardan tozalab, bob-bob qilib, tartib berishga mashg’ul bo’lg’aymen, lekin shu shart bilanki, takalluf-u bezak berish, lof urish ziynatidan o’zimni tiyg’aymen...” Ya’ni, Amir Temur asos solgan Turon davlati tarixi yozilganda, ortiqcha takalluflarga, lof-u maqtovlarga o’rin berilmasligi kerak... Hamma narsa haqqoniy yozilsin... “Yaxshi va ravon so’z uldirmek,



avom xalq uning ma’nosini anglag’ay, xos kishilar unga ayb qo’ymag’ay...” deb uqtiradi Amir Temur. Muarrixga, nima uchun asar sodda yozilishi kerakligini tushuntirganda, (darvoqe, Amir Temur “Tuzuklar”ni insho etishda aytganlariga o’zi ham rioya qilgan) Sohobqiron, uning jimjimadorlikdan xoli, sodda bo’lishini, chunki u keng avom, xalq uchun bitilishini, ko’pchilik o’qishini nazarda tutadi. Sohobqiron deydi: “Shu uslubda yozilgan, tashbeh va mubolag’alar bilan oro berilgan kitoblarda ko’zlangan maqsadlar o’rtada yo’qolib ketadi. Agar so’z qoida-qonunidan nasibador bo’lganlardan birontasi ma’nisini fahmlab qolar, ammo qolgan o’ntasi, yuztasi uning mazmunini bilishdan, maqsadga yetishdan oqiz. Shu sababli, uning foydasi barchaga barobar bo’lmaydi...” (Nizomiddin Shomiy. “Zafarnoma”. –T., 1996. 23-bet).

Bularning bari Amir Temurning ma’naviyati yuksakligini, teran savod egasi ekanini namoyon etibgina qolmay, umuman kitob, keng ma’noda ijod ahmiyatini, so’z qonun-qoidasini nozik tushunishini, ilmning, tarixning qadriga yetuvchi siymoligini ham yaqqol ko’rsatib turibdi. Turon sultonining kitob ilmi, ijod sirlarini ipidan ignasigacha bilishi, uslub, so’z oroyishi, iboratorolik san’ati, tashbeh, mubolag’a, so’z qoida-qonuni, ta’lif singari ahli qalamgagina xos istilohlarni muomalada bemalol qo’llashi Nizomiddin Shomiyini hayratga soldi... Ibn Xaldun bilan bo’lgan suhbat esa tunislik mashhur faylasufni lol aylagan edi.

G’iyosiddin Alining yozishiga ko’ra, “Hindiston g’azovoti kundaligi” asarini yozish uchun Humoyun o’rdudan muallif nomiga maxsus farmon chiqargan edi. Bu asar yozilishiga katta e’tibor berilganidan dalolatdir.

“Tuzuklar”ga qaytaylik. “Tuzuklar”ning jahonning ko’p tillariga tarjima qilangani va bu jarayon davom etayotgani, turlicha fikrlar, turfa xil munosabatlar bildirilayotgani, bahs-munozaralar bo’layotgani bizlarga ma’lum. Lekin hozir biz bular haqida to’xtalmoqchi emasmiz. Bizni qiziqtirgan narsa, diqqatni “Tuzuklar”ning asl nusxasini topish muammasiga qaratmoqdan iboratdir.

Bir narsa ajablanarli tuyuladi: Amir Temur vafotidan so’ng qariyb ikki yuz yil davomida “Tuzuklar” haqida, uning taqdiri borasida nechundir hech qanday ma’lumot uchramaydi. Buning sababini qidirishga urinar ekanmiz, mantiqqa suyanganda holda paydo bo’lgan ayrim mulohazalarni muhtaram o’quvchi bilan baham ko’rishga jazm etdik.

Ma’lumki, milodiy 1405-yil fevral oyida O’trorda Amir Temur betoblanib qoladi va o’zidan keyin yurtini kim boshqaradi, deb uzoq xayolarga beriladi. Keyin nabirasi Pir Muhammad Mirzo ibn Jahongirni ulug’ saltanatga valiahd etib tayinlaydi va arkoni davlatga uning atrofida jipslashishni topshiradi, aks holda, yurt parokanda bo’lib ketishi mumkinligidan ogohlantiradi... Sarkarda va amirlar, arkoni davlat barcha ko’zda yosh

bilan qo’l qovushtirib: “Xotirjam bo’lingiz, ey Sohobqiron! Barcha farmoningizni hech og’ishmay ado eturmiz!” deb qasam ichadilar.

Biroq yovuz va nopok kishilar oraga kirib, yosh shahzoda xayolini o’g’irladilar va xiyonat bilan, ayni paytda qonuniy valiahd Pir Muhammad Mirzo ibn Jahongirning Qandahorda ekanidan foydalanib, o’rniga... Xalil Sultonni taxtga o’tirg’izishga erishdilar! Va... vasvasaga tushib qolgan yosh shahzodaning ham, afsuski, ulug’ bobosining so’zlariga qarshi borib, shunday nomaqbul yo’lga qadam bosishi aql bovar qilmas voqeaga aylandi. Natijada mamlakat ishlari izdan chiqdi... Yurtida Xalil Sulton xotini Shodimulk tili bilan, Shodimulk esa Xalil Sulton tili bilan gapira boshladi, degan noxush va yoqimsiz mish-mish vahmalar yoyilib ketdi... Qalang’i-qasang’ilar yurt boshiga chiqishga intildi, boshboshdoqlik haddan oshdi, xazina talon-toroj bo’ldi, nodir buyumlar o’g’irlab ketildi... Davlat sandig’ida saqlanayotgan, begona ko’z ko’rishi mumkin bo’lmagan qimmatli hujjatlar, Nizomiddin Shomiy eslagan, onhazrat uchun yozilgan tarix ham (saroyda bo’lgan hodisalar yozuvlari, voqeanomalalar, daftarlar, lavhalar, boshqa vasiqalar...), Ko’ksaroy kutubxonasi boyliklari ham yo’g’orat qilindi, yo’ xarob etildi...

“Temur tuzuklari” yuksak saltanat hujjati va davlat siri edi, hujjat bir nusxa, nari borsa, ikki nusxa bo’ladi, u maxfiy saqlanadi, sir esa qattiq tutiladi... Bu tarixda qat’iy amalda bo’lgan taomil. Shu sababdan, oddiy xalq, avomunnos, hatto shahzodalar, bek va amirlar bunday kitobning borligini bilishmagan ham (*bilishlari ham shart bo’lmagan!*), degan fikrga keladi kishi... Davlat notinch, xazina kalitlari favqulodda davlat boshqarishdan uzoq, ish ko’rmagan, tajribasiz kimsalar ko’liga tushdi, barini mulohaza qiladigan, qadriga yetadigan, diqqat bilan o’ylab ko’radigan, adashganlarni yo’lga soladigan valloamat oqil kishi, afsuski, topilmadi...

Bu tariximiz uchun ofatli davr, to’rt yil, to Shohrux Mirzo Xurosondan kelib Ulug’bek Mirzoni taxtga mindirmaguncha (1409) davom etdi. Muarrix Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shohrux Mirzo Samarqandda xazinaga kiribdi. Xazina bo’m-bo’sh ekan. Podsho burchakda bir dinor tanga ko’rib qolibdi. Ulug’bek Mirzo darhol olib beribdi. Shohrux Mirzo dinorni puflab artib, ardoqlab o’pib ko’zlariga surtibdi va hamyoniga solarkan: “Xayriyat, otamizdan bizga ham ulush tegdi!...” deb quvonibdi. Saltanat shunday ahvolda edi.

Tariximizning jonkuyar bilimdonlaridan biri, atqoli adib Pirimqul Qodirov o’zining “Ma’naviyatimiz tarixida “Temur tuzuklari”ning tutgan o’rni” maqolasida shunday so’zlarni keltirib o’tadi: “...Bobur Mirzoning chevarasi bo’lgan Shohjaxon katta bobosining Humoyunga yozib qoldirgan maxfiy vasiyatnomasidan, albatta, xabardor bo’lgan. Bu vasiyatnomada Bobur Mirzo o’g’liga: “Adolatni ixtiyor qilgil... Hazrat Amir Temurning kornomasini doim yodingda tutgil” deydi. Bu yerda korнома so’zining ma’nosi teran va ko’p qirrali ekaniga e’tibor berish kerak. Avvalo, noma bu qog’ozda bitilgan yozma qadriyatdir. Demak, Amir Temurning qog’ozda bitilgan merosi, jumladan, Tuzuklari Bobur Mirzo va uning avlodlariga meros tarzda yetib borgan...” (*“Temur tuzuklari”, –T., 2005. 141-bet*).

“Temur tuzuklari” mamlakatdagi notinchlik, besaranjomliklardan keyin kimning qo’lida bo’lgan, qanday qilib mamlakatdan chiqib ketgan, qanday “sarguzasht”larni boshdan

kechirgan – bularni, albatta, faqat taxmin qilish mumkin, xolos. “Tuzuklar” Yaman hokimi Ja’far Posho kutubxonasiga tasodifan tushib qoldimi, u yerga yetib borguncha, uni birov ko’rdimi, o’rgandimi, nusxalar ko’paytirilib tarqalib ketdimi, qaygadir yubordilarmi – bu yog’i ham, afsuski, ma’lum emas...

Xurosonlik alloma va tarjimon Abu Tolib Husayniy Ariziy Turbatii taxminan milodiy 1610-yilda haj safariga borayotib (ayrim manbalarda – kelayotib) Usmonlilar imperiyasiga qarashli Yaman viloyati hukmdori, ilm-ma’rifatni qadrllovchi o’ta ziyoli inson Ja’far Posho (1607–1616) huzurida mehmon bo’ladi va hukmdorning boy kutubxonasi bilan tanishadi. Kitoblar orasida kutilmaganda eski o’zbek (turk) tilida yozilgan “Temur tuzuklari”ga duch keladi va qiziqib, uni fors tiliga tarjima qiladi...

Savol tug’iladi: xo’sh, Abu Tolib “Tuzuklar” tarjimasiga Yamanda kirishdimi yoki bu yerdan ketgandan keyin boshladimi – bu ma’lum emas. Ikkinchidan, “Tuzuklar”ning asl nusxasi shu kutubxonada qoldimi (chamasi, qolgani haqiqatga yaqinroq, chunki nodir kitob berib yuborilmaydi) yoki o’zi bilan olib ketib, keyin tarjima urindimi – bu ham noma’lum.

Taxminimizcha, Abu Tolib ma’lum muddat Yamanda yashagan, hokim Ja’far Posho saroyida xizmatda bo’lgan (saroyda bir guruh olimlar ilm bilan shug’ullanardilar), shu paytda “Tuzuklar”ning fors tiliga tarjimasini ustida ish olib borgan va shu yerda ishni nihoyasiga yetkazgan... Bu bir talqin.

Boshqa talqin ham bor: Ja’far Posho yurt notinchligi orqasida milodiy 1616-yilda Yamandan ketadi, Makka yo Madinaga (qay birgaligi aniq emas) ko’chib o’tishga majbur bo’ladi va kitoblarini ham o’zi bilan olib ketadi. Hajga borgan Abu Tolib Husayniy o’sha yerda “Tuzuklar”ning asl nusxasini qo’lga kiritadi... Bular aniqlanishi kerak bo’lgan jihatlar.

Qanday bo’lganda ham, Abu Tolib Husayniy Turbatii o’zbek madaniyati tarixi uchun juda ham savobli, ezgu ishni amalga oshirgan, Amir Temur hayoti va davriga oid bebaho yodgorlikning bizgacha yetib kelishiga sababchi bo’lgan. Alloh uning qabrini nurga to’ldirsin. Abu Tolib Husayniy tarjimini nihoyasiga yetkazgach, unga so’zboshi yozadi va shunday so’zlarni keltiradi: “...Ko’rdimkim, boshdan oyoq hammasi Sohobqiron Amir Temurning o’z so’zlaridir... Amir Temur o’z gavhar tili bilan bu nav’ takallum surmushkim... podsholarga dasturlamal bo’lg’ay...” Pirimqul Qodirov o’z maqolasida keltirilgan bu so’zlar professor Ubaydulla Uvatovning “Sohibqiron arab muarrixlari nigohida” nomli kitobidan olingan.

Bizning fikrimizcha, “Temur tuzuklari”-ning xos nusxasi Abu Tolib Husayniy amalga oshirgan tarjimaning aynan asliyatidir. Asliyat – shu. Juda ko’p xorijiy, yuqorida aytganimizday, Mayor Devi va o’zbek olimlari shunday fikr tarafdoridirlar. Buni mantiqan to’g’ri, deb hisoblaymiz. Chunki dunyoga ko’p tarqalganligi, 1783-yilda inglizchaga (Mayor Devi), 1787-yilda fransuzchaga (L.Langle) va boshqa tillarga tarjima qilganligi (hatto L.Langle “Tuzuklar”ni tarjima qilgandan keyin, “Temur hayoti” nomli kitob ham yozgan), asarning dovrug’i keng yoyilganligini ko’rsatib turibdi.

Hindistonda xizmatda bo’lgan Buyuk Britaniya zobiti va sharqshunosi, Bengal harbiy kuchlari ko’mondonining fors kotibi Mayor Devi milodiy 1779-yilda Abu Tolib Husayniy tarjimasini qo’lga kiritadi va uni inglizchaga tarjima qilish ishtiyoqida Angliyaga olib ketadi. Mayor Devi Oksford universiteti arab tili professori Mayor Uayt bilan birgalikda qutlug’ ishga kirishadi. Mayor Uayt “Tuzuklar”ning forsha matnini nashrga tayyorlaydi. Mayor Devi shu nusxadan asarni ingliz tiliga tarjima qiladi. Unga izohlar, ko’rsatkichlar ilova etadi.

Kitob 1783-yilda ilk marta Oksfordda “Klarendon-Press” nashriyotida bosilib chiqadi.

Mayor Devining bu inglizcha nashri va tarjimasini bizlar uchun muhim ikki haqiqatni isbot etib beradi:

1. “Tuzuklar”ning eski o’zbek (*tarjimon mo’g’ul tilida, deydi, chunki bu payt “mo’g’ul” atamasi Hindistonda keng yoyilgan edi*) tilida yozilgani;

2. “Tuzuklar”ning muallifi Amir Temurning o’zi ekan.

Bu katta voqea, xolis olimlarning fikri bo’lgani bilan qadrlil. To’liq tasavvur uchun “Tuzuklar”ning 1783-yilgi Oksford nashri titl varag’ida berilgan so’zlarni aynan keltirib o’tamiz:

“INSTITUTES political and military, written originally in the mogul language,



by the GREAT TIMOUR, improperly called TAMERLANE; First translated into Persian by Abu Taulib Alhussemi and thence into English... by MAJOR DAVY, Persian secretary to the commander in chief the Bengal forces.”

Tarjimasini: *“Laqabi Tamerlan bo’lgan Buyuk Temur qalamiga mansub, asli mo’g’ul (eski o’zbek – M.A.) tilida yozilgan siyosiy va harbiy Tuzuklar; (asarni) dastavval fors tiliga Abu Tolib Husayniy tarjima qilgan, undan Bengal harbiy kuchlari qo’mondonining fors kotibi... Mayor Devi ingliz tiliga o’g’irgan”.*

Mayor Devi Abu Tolib Husayniy dastavval asarni fors tiliga tarjima qilganini ta’kidlab, kitobning titl varag’idayoq yozib qo’ygani biz uchun g’oyatda qimmatli dalildir. Bu “Tuzuklar”ning eski o’zbek tilida yozilgani rad etib bo’lmaydigan haqiqat ekanini ko’rsatadi.

Inglizcha tarjimada yigirmadan ortiq o’zbekcha so’zlar mavjudligini aytib o’tamiz. Chunki forsiy tarjima jarayonida bu o’zbekcha so’zlar o’g’irlamay asliyat shaklida olingan, undan shu holda inglizcha tarjimaga ham ko’chib o’tgan. Bu ham “Tuzuklar” yozilgan ona tilga bir ishora sifatida qaralishi kerak.

Abu Tolib Husayniy “Tuzuklar”ning forsiy tarjimasini 1637-yilda (ayrim manbalarda uning 1625-yilda vafot etgani aytiladi) Boburiy podshoh Shohjahonga (ba’zi manbalarda esa uning otasi podsho Nuriddin Jahongirga) tortiq etadi...

“Temur tuzuklari” bilan tanishgan imperator Shohjahon shu tarjimani Dekan viloyati qozikaloni Muhammad Ashraf Buxoriyga: “... mazkur tarjimani mo’tabar asarlar, xususan, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si va shunga o’xshash muhim manbalarga solishtirib chiqish va shu yo’l bilan tarjimadagi xato va kamchiliklarni bartaraf qilishni topshirgan...” (*Akademik Bo’riboy Akhmedov. “Temur tuzuklari”ning 1996-yil nashriga yozilgan so’zboshidan*).

Oliy topshiriqli olgan Dekan qozikaloni ixlos bilan ishga kirishadi, kitobda ko’p tahrirlarni amalga oshiradi, xato deb hisoblagan nuqtalarni tuzatadi, yangiliklar qo’shadi. Va kitob kattarib ketadi...

Oxir-oqibatda “Tuzuklar”dan foydalanib yozilgan “Mal’fuzot” nomli yangi asar paydo bo’ladi. Fikrimizcha, bundan ogoh bo’lgan Yevropa va rus olimlari shu sababni ushlab olib, “Tuzuklar”ni Amir Temur yozmagan, boshqalar tomonidan yozilgan, degan xulosaga kelib, bunda ishonib qoldilar va o’z tadqiqotlarida shunday yozdilar ham. Bu xato edi, albatta.

Shu taxlit, Abu Tolib Husayniyning “Tuzukot”i bilan Muhammad Ashraf Buxoriyning “Mal’fuzot”i bir-biriga bog’liq, ammo mutlaqo boshqa, ikki mustaqil asarga aylandi. Bu ayrim tadqiqotchilar da’vo qilganlariday, bir asar emas! Bu haqda sharqshunos olim Habibulla Karomatov ham o’zining “Temur tuzuklari muammolari tarixidan” maqolasida to’xtalib o’tgan edi: “Modomiki, “Tuzuklar”ning turkiychig’atoy tilidagi asl nusxasini topish yo’lidagi izlanishlar davom etar ekan, hozircha Jozef Uayt va Vilyam Devi tomonidan tayyorlangan Abu Tolib nusxasining nashri ilmiy tadqiqot va keng foydalanish uchun asos qilib olinsa, maqsadga muvofiq bo’lar edi”. (*“Amir Temur saboqlari”. To’plam. –T., 2025. 123-bet*.) Bu fikrga qo’shilish kerak.

Xalqaro Amir Temur jamoat fondi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O’zFA Sharqshunoslik instituti va Tarix instituti, Islom sivilizatsiyasi markazi jamoalari, umuman jamiyatimiz oldida bir muhim masala yechimini kutib turibdi. Bu – “Temur tuzuklari”ning asliyatini qidirib topish, uni o’rganib chiqish, madaniyatimiz, xalqimiz mulkiga aylantirishdek qutlug’ vazifadir.

Ona tariximiz ko’zgusi, bebaho ma’naviy boyligimiz bo’lgan “Temur tuzuklari” yodgorligining asl nusxasi topilishi esa madaniyatimizning yuksak tantanasiga aylanishi shubhasiz.

Muhammad ALI,
Xalqaro Amir Temur jamoat fondi raisi,
O’zbekiston xalq yozuvchisi,
professor



“Temur olimlarga mehribon, sayyid-u shariflarni o’ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to’la izzat-hurmat ko’rsatib, ularni har qanday odamdan muqaddam ko’rardi. Ularning har birini o’z martabasiga qo’yib, unga izzat-u ikromini izhor qilardi.

Ibn ARABSHOH

SUHBAT

KOINOTDAGI QORA TUYNUKLARNI O‘RGANAYOTGAN O‘ZBEK OLIMI



Jadid ma‘rifatparvarlari orasida nafaqat shoir-u adiblar, muallim-u tarixchilar, balki aniq fan va kasb vakillari – irrigatorlar, kimyogarlar, veterinarlilar, shifokorlar, mohir me‘morlar, hatto astronomiya va qishloq xo‘jaligi sohasi mutaxassislari bo‘lganidan xabardorsiz, albatta. Ularning aksariyati “Ko‘mak” xayriya jamiyati orqali xorijda bilim va tajribasini oshirishgan. Taassufki, qatag‘on qilichi ularga dunyoviy tajribalarini yurtida qo‘llash imkonini bermadi. Biroq jadidlar ilmiy merosining o‘chmas uchqunlari kelgusi avlodlar yuragida alangalanib, ilgma bo‘lgan ishtiyoq kuchayib boraverdi...

Bugungi suhbatdoshimiz ham jadid bobolar singari borlig‘ini ilgma safarbar etgan, butun fikrati va fitratini cheksiz koinot sirlarini kashf etishga bag‘ishlagan yosh olim, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti bosh ilmiy xodimi, fizika-matematika fanlari doktori, “Shuhrat” medali sohibi Ahmadjon Abdujabborovdir. Uning yuzdan ziyod, jumladan chet elning nufuzli jurnallarida yetmishdan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan. Ikkita monografiyasi nashr qilingan. Shuningdek, qahramonimiz 2006-yilda fizika, matematika, kimyo va biologiya yo‘nalishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sovrindori bo‘lgan. Aspirantura bosqichida o‘qish davomida muddatidan oldin astrofizika va radioastronomiya mutaxassisligi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2010-yilda “Kamolot” stipendiyasiga, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining “Yilning eng yaxshi ilmiy maqolasi” nominatsiyasi bo‘yicha sazovor bo‘lgan. 2014-yilda fizika yo‘nalishida yosh olimlar uchun xalqaro TWAS sovrinini qo‘lga kiritgan. Astronomiya va nazariy fizika mutaxassislilklari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. 2017-yilda Web of Science tashkiloti tomonidan “Eng yaxshi yosh olim”, 2019-yilda Scopus xalqaro tashkiloti tomonidan “Eng yaxshi injener olim” nominatsiyalarida g‘olib bo‘lgan, 2018-yilda TWAS – Dunyo fanlar akademiyasining yosh a‘zosi etib saylangan.

U gravitatsiya, nisbiylik nazariyasi va relyativistik astrofizika sohalari bo‘yicha iqtidorli mutaxassis sifatida tanilgan. Uning ilmiy yo‘nalishlari kompakt gravitatsion obyektlar relyativistik astrofizikasi va umumiy nisbiylik nazariyasi bilan bog‘liq. Olim aylanuvchi qora tuynuklar soylarini tavsiflash uchun yangi formalizm ishlab chiqdi.

Ahmadjon Abdujabborov hozirda Milliy tadqiqot universiteti hamda Toshkentdagi xalqaro Webster universiteti talabalariga ma‘ruza o‘qimoqda. Yosh bo‘lishiga qaramay, yigirmadan ortiq magistr, o‘n nafar falsafa doktori hamda besh nafar fan doktoriga ilmiy rahbarlik qilgan.

davorda ba‘zi g‘arb davlatlarida “Yer Quyosh atrofida aylanadi” kabi ilmiy haqiqatlarni ilgari surgani uchun ilm ahli toshbo‘ron qilinayotgan, tiriklay yoqilayotgan edi. Umuman, ilm, xususan, osmon ilmi va ilohiy haqiqatlar uyg‘unligi haqida nima deya olasiz?

– Ilm odami biror katta natijaga erishishi uchun ham dunyoviy, ham diniy bilimni o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak, mening nazarimda. Axir, butun dunyoning yaralishi, cheksiz koinot, galaktikamiz, undagi bizning sayyoramiz, Oy, Quyosh, yulduzlar – bularning hammasi Yaratganning mo‘jizasi-ku. Ilmda shunday bahsli holatlar bo‘ladi, bunga daho olim ham javob bera olmay qoladi. Va albatta, bunday vaziyatda buyuk ilohiy kuchning borligiga iymon keltirmay ilojingiz yo‘q. Har bir zarraning kichik zarrachalarigacha o‘rganishingiz, idrok etishingiz uchun ilohiyot ilmidan bexabar bo‘lsangiz qiynalasiz. Haqiqiy komillikka erishishning zahmatli yo‘lini men hazrat Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi yuz minglab qushning Semurg‘ni izlab yo‘lga chiqishiga o‘xshataman. Qarang, ular yo‘lga chiqqanda bir necha yuz minglab edi va yettinchi vodiya yetib borguncha qancha riyozat chekib, qanchasi yo‘lda mahv bo‘ldi, qanchasi fikridan qaytib ortga chekindi. Oxirgi yettinchi vodiya, manzilga faqat 30 ta qush yetib keldi. Dunyoviy ma‘noda tushunganda, “Lison ut-tayr” o‘quvchiga bosh, asl, birlamchi maqsadga yetish yo‘lida insonga asosiy bo‘lmagan, ikkinchi darajali maqsadlardan voz kechish yo‘lini ko‘rsatadi. Agar kimki bu dunyoda o‘zini o‘zi kashf etib, boshqalardan bir bosh balandroq pog‘onaga ko‘tarilgan bo‘lsa, bilingki, u birinchi darajali maqsadga

oldida dovdirab qolmasligimiz uchun ham biz, eng avvalo, falsafani ham puxta o‘zlashtirgan bo‘lishimiz kerak. Buyuk olimlar Nyuton ham, Paskal ham faylasuf bo‘lgan. Yoki XVI asrda yashab ilm qilgan buyuk ajdodlarimiz fanlarni gumanitar va aniq fanga ajratishmagan. Ular men yuqorida tilga olgan barcha sohalarni mukammal bilishgan.

– Zamonaviy o‘zbek olimining imiji qanday bo‘lishi kerak?

– U avvalambor iqtisodiy ta‘minlangan bo‘lishi kerak. O‘ziga to‘q, moddiy manfaat-lari to‘liq qoplangan olim o‘z ustida ishlay-di, yetishmovchilik, tirikchilik deb ilmdan chalg‘imaydi. Oylab, yillab, tadqiqot markaz-larida, ilmiy tekshirish institutlarida boshini ko‘tarmay fan bilan shug‘ullanishga imkoni bo‘ladi va bunday olimga yosh avlod, uning shogirdlari ham havas qiladi, u etalon vazifasini bajaradi. Qolaversa, ular ziyoli sifatida millat peshvolari, mamlakatimizda, dunyoda ro‘y berayotgan barcha voqea-hodisalar yuzasidan o‘z pozitsiyasiga ega, o‘z prinsiplariga sodiq qoladigan butun shaxs bo‘lishi shart, deb hisoblayman.

– Bugun Prezidentimiz tomonidan yuksak marra belgilandi. Bu ham bo‘lsa – Uchinchi Renessans poydevorini yaratish. Birinchi, Ikkinchi Renessans davrida astronomiya sohasida ulug‘ ajdodlarimiz nimalarga erishganini yaxshi bilamiz. Xo‘sh, o‘zbek astronomiya ilmda Uchinchi Renessans qanday kechadi deb o‘ylaysiz?

– Renessans ilm-fansiz bo‘lmaydi, albatta. Qayerdagi ilm-fanga e‘tibor yaxshi bo‘lsa, ilm ahlining tashabbuslari qo‘llab-quvvatlansa, endi tetapoya qilib kirib kelayotgan yosh avlod to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirilsa, ularga g‘amxo‘rlik qilinsa, albatta, bu ertaga o‘z mevasini bera boshlaydi. To‘g‘risi, bizda 2016-yilgacha ilm-fanda biroz saturatsiya, ya‘ni to‘yinish kuzatildi. Bu degani ilm-fan yuqorilab ham ketmaydi, juda pastlab ham ketmaydi, bir joyda depsinib turib qoladi.

Keyingi yillar bizda ilm-fanga e‘tibor kuchay-di. Katta islohotlar amalga oshirilyapti, yosh olimlar xorijda o‘qitilmoqda, ilmiy markazlar, institutlarda ijodiy muhit shakllanmoqda, ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy asbob-uskuna-lar bilan ta‘minlash masalalarida yangicha yondashuvlar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Nati-jada o‘zbek olimlari orasida ham dunyo tan olayotgan, jahon minbarlarida e‘tirof etilayot-gan olimlar safi kengayib borayotir.

Rivojlangan davlatlarda fan hamma region-da, hatto kichik-kichik shaharlarida ham taraqqiy etgan. Masalan, Germaniyada Berlin shahridan tashqari Frankfurt ham, Drezden, Myunxenda ham ilmiy markazlar, laboratoriyalar mavjud. Afsuski, bizda bu jarayon markazlashish bilan cheklangan. Hamma yangiliklar, katta-katta loyihalar ham asosan poytaxtda amalga oshiriladi. Viloyatlarda esa ahvol maqtanarli emas. Aslida fanni mamlakatning barcha hududlarida birdek rivojlantirish kerak. Shu maqsadda yaqinda Namangan davlat universitetiga borib, hamkorlikni yo‘lga qo‘ydik. “Astrofizika yo‘nalishida ilm qilaman”, degan yoshlar bilan suhbatlashdik. Kelgusida bu amaliyotni yana boshqa viloyatlar bilan ham davom ettirmoqchimiz. Chekka hududlarda ham ilmiy maktablar yaratsak, degan umidimiz bor.

– Ahmadjon, sohaga oid qiziqarli ma‘lumotlar uchun sizdan minnatdormiz. Ilmiy faoliyatingizga ulkan zafarlar tilaymiz, salomat bo‘ling.

Shahnoza ROFIYEVA suhbatlashdi.

tadqiqot institutlarida tajriba almashib qayt-ganman. 2017-yilda Xitoyning yetakchi ilm dargohlaridan bo‘lgan Fudan universitetida ikki yillik shartnoma asosida ishlab keldim. Bu universitet dunyo reytingida 4-o‘rinda turadi. 2020-yilda Shanxay astronomik obser-vatoriyasiga ishlashga borishim kerak edi, pandemiya sabab yurtimizda qolib ishlashimga to‘g‘ri keldi. Ammo keyingi yillarda Xitoy va Janubiy Koreyadagi nufuzli ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda bir qancha ilmiy konferensiyalar, seminarlar tashkil etdik.

Ilmiy faoliyatimga to‘xtaladigan bo‘lsam, u astrofizikadagi sirli obyektlar – qora tuynuklar, neytron yulduzlar, qorong‘i energiyalar, qorong‘i modda kabi substansiyalarning fizik, astrofizik xossalarni o‘rganishga qaratilgan. Xususan, 2013-yildan 2019-yilgacha qora tuynuklarning atrofidagi optik jarayonlarning qanday kechishi, umuman, qora tuynukni astrofizikada qanday qayd etish, qora tuynukning soylasini qanday aniqlab tahlil qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordik va buning ilmiy tasdig‘ini qayd etdik.

Bizning o‘quvchilik damlarimiz o‘tish davri-ga, 90-yillarga to‘g‘ri kelgan, o‘sha paytlar tengdoshlarimiz kun ko‘rish uchun bozorga chiqib, tirikchilik qilganda, dadam: “Sizlar faqat chalg‘imay o‘qinglar, nima kamchilik bo‘lsa o‘zim yetkazaman”, deb imkoniyat berganlari uchun oilamizdagi to‘rt farzand yaxshi maktab-larda o‘qidik, oliy ma‘lumotli bo‘ldik.

– Muqaddas kitobimiz Qur‘oni Karimda osmon jismlari, xususan, Quyosh, Oy va yulduzlar juda ko‘p o‘rinlarda tilga olingan. Alloh taolo ularni “ochiq oyatlar” deb ta‘riflab, bandalarini tafakkur qilishga chorlaydi. Holbuki, xuddi shu

– Astrofizik olimning fikrlash tarzi qanday bo‘lmog‘i lozim?

– U faqat fizika va matematikani emas, balki falsafani ham, tarixni ham, xorijiy tillarni ham bilishi, adabiyot va musiqadan ham xabardor bo‘lishi kerak. Osmondagi yulduzlar qanday paydo bo‘lgan? Nega ularni biz faqat qorong‘ida ko‘ramiz? Oyda nima bor? Quyoshda-chi? Uning yorqinligining manbasi nimada? Xuddi shu singari o‘nlab va yuzlab savollarga javob beradigan fanlar bu – astronomiya, astrofizika. Astronomiyaning eng dolzarb vazifalaridan biri koinotning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Cheksiz koinotning bir zarrasi o‘laroq, o‘rganayotgan ilimimizni idrok qilish uchun, uning hayratlanarli siri, mahobati

XOTIRA AZIZ



QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Qayum Ramazonov – 1900-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Onasi yorda-mida savod chiqargan. 1909–1915-yil-larda Eshonxo‘ja Xoniy va Munavvar qori Abdurashidxonovning yangi usul maktabida hamda madrasada ta‘lim-tarbiya olgan. 1916-1917-yillarda Boku shahridagi pedagogika institutida o‘qi-gan. 1918–1921-yillarda o‘qituvchilar tayyorlash kursi va boshlang‘ich maktab-larda o‘qituvchilik qilgan. Abdurauf Fitrat bilan birgalikda “Chig‘atoy gurunji”ni tashkil qilgan va unda kotib bo‘lib ishlagan. Turkistondagi “Qizil bayroq”, “Turkiston” gazetalarida adabiy xodim, 1929-1930-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy ijroiya komiteti huzuridagi Yangi o‘zbek alifbosi Markaziy Qo‘mitasi a‘zosi bo‘lgan. 1934–1937-yillarda fan komiteti huzuri-dagi til va adabiyot institutida dotsent vazifasida ishlagan. Teatr tanqidchisi sifatida “Abu Muslim”, “Uyg‘onish”, “Yalang‘och Eshon”, “Shayx San‘on”, “Farhod va Shirin”, “Malikayi Turondot”, “Hujum”, “Halima” spektakllariga taqriz yozgan. O‘z davrida o‘zbek maktablari uchun asosiy darsliklarni yaratgan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi yig‘ilishida Qayum Ramazonov otuvga hukm qilingan. Hukm o‘sha kuni ijro etilgan.


Sharif Yusufboyev – 1870-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingunga qadar nafaqada bo‘lgan. Nafaqagacha So‘l eserlar partiyasi a‘zosi, keyinchalik savdogarlik qilgan. Arxiv hujjatlarida “Sho‘royi Islom” tashkiloti a‘zosi sifatida qayd etilgan. 1927-yili saylov huquqidan mahrum qilingan. 1934-yildan 1937-yil 1-oktyabrgacha Kuybishev nomli mahalla masjidida imonlik qilgan. O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 5-apreldagi qaroriga binoan “Milliy ittihad” aksilingilobiy tashkiloti a‘zosi bo‘lgani uchun 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1962-yil 20-iyunda reabilitatsiya qilingan.

Mardonbek Nosirbekov – 1889-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1918-yildan 1921-yilgacha Toshkentdagi So‘l eser tashkilotining nufuzli va faol a‘zosi bo‘l-gan. Polkovnik Abdusolihov bilan bir-ga Osipov qo‘zg‘olonida qatnashgan. Oktyabr to‘ntarishigacha Toshkent tram-vayida vagon haydovchisi, keyin turli muassasalarda bir qancha vazifalarda xizmat qilgan. U So‘l eserlar tashkiloti bilan aloqada bo‘lganlikda, sovetlarga qarshi tashviqot olib borganlikda ayb-lanib, 1938-yil 23-fevralda hibsga olin-gan. “Milliy ittihad” aksilingilobiy tash-kilotiga a‘zolari va sovetlarga qarshi targ‘ibot olib borganligi aybi bilan O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 5-apreldagi qaroriga binoan, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1962-yil 20-iyunda reabilitatsiya qilingan.

Otaxon Nazirxonov – 1887-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Hibsga olin-gunga qadar Kommunal bank hisobchi-si bo‘lib ishlagan. Oktyabr to‘ntarishiga qadar yollanma ishchi, bo‘lib kun kechirgan, keyinchalik yangi iqtisodiy siyosat davrida uch yil savdo bilan shug‘ullangan. Hujjatlarda u 1919-yildan VKP(b)ga a‘zo bo‘lgani, 1922-yili partiya safidan chiqarilgani yozilgan. Otaxon Nazirxonov 1938-yil 23-fevralda hibsga olingan. O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 5-apreldagi qarorida “Ittihad va taraqqiy” va “Milliy ittihad” aksilingilobiy tashkilotiga a‘zo-likda va sovetlarga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. U 1962-yil 20-iyunda reabilitatsiya qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV, tarix fanlari doktori, professor Azizbek MAHKAMOV, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Nigoraxon AKBAROVA, tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).



“Fan cheksizlikni o‘rganishga intilar ekan, o‘zining ham had-chegarasi yo‘q va jahon miqosida tarqalgani uchun chinakam xalqchilik kasb etadi.

MENDELEYEV





O'ZBEK TILIM – O'Z TILIM MAQOLLAR HIKMATI

Aleksandra VASILYEVA,
Toshkent shahridagi 19-maktab
o'qituvchisi:



– Men poytaxtni haqiqiy o'zbekona mahallalaridan birida tug'ilib, voyaga yetganman. Bizning mahallada turli millat bolalari bor edi. Ular bilan "Bekinnmachoq", "Oq terakmi, ko'k terak?" kabi o'zbek milliy o'yinlarini o'ynab katta bo'lganman. O'sha paytlardayoq o'zbek tilidagi men ma'nosini tushunmagan so'zlarni o'zbek do'stlarim bolalarcha soddalik bilan tushuntirishardi.

Bolalikning samimiyati meni hamisha o'ziga maftun etib kelgan. Balki shu sababdan bo'lsa kerak, men boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbini tanladim. Bu kasbning yaxshi tomonlari juda ko'p. Ayniqsa, beg'ubor bolalarning ajoyib savollari meni har safar o'sha olis bolaligimga qaytaraverishi yuragimni ajib hislarga to'ldiradi...

Men ishlayotgan 19-maktab jamoasi juda ahil. Bilmaganlarimni hamkasblarimdan so'rab o'rganaman. Ta'lim sohasiga katta e'tibor berilayotgan Yangi O'zbekistonda o'qituvchi bo'lib ishlayotganimdan faxrlanaman. Shu mamlakatning bir farzandi – pedagog sifatida o'quvchilarning har tomonlama yetuk kadr, bilimli va yuksak

salohiyatli inson bo'lib yetishishida o'z hissamni qo'shishdan xursandman.

Yaqinda maktabimizda Navro'zni katta bayram sifatida nishonladik. O'quvchilarimiz o'zbek milliy kiyimlarida xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini aks etgan ko'rgazmali va badiiy dasturlar tayyorlashdi. Milliy o'yinlar, taomlar beixtiyor yana bolalik xotiralarimni qayta jonlantirgandek bo'ldi...

O'zbekistonning ziyoli bir fuqarosi sifatida davlat tilini o'rganib, xalqning turmush tarzini puxta o'zlashtirganim menga hayotda juda ko'p muvaffaqiyatlar olib kelgan. Fursatdan foydalanib, mamlakatda yashayotgan boshqa millat vakillariga ham davlat tili – o'zbekchani puxta o'zlashtirishlarini tavsiya qilaman. "Til bilgan – el biladi", degan o'zbek maqoli ayni haqiqat ekanini o'z hayotim misolida yana bir bor anglab yetyapman.

Dilmurod DO'STBEKOV
yozib oldi.

TILBILIM

"YUR" VA "YURT" SO'ZLARI HAQIDA

"Qari qarg'a" degan she'rimda "Hamon yurt oralab yurar bir maqol" degan satrni yozayotganimda *yurt* va *yur* so'zlaridagi uyg'unlikni sezib qoldim.

Gap shundaki, qadimgi tilimizda fe'ldan ot yasovchi "-t" qo'shimchasi bo'lgan. "Qadimgi turkiy til" kitobida "ayir" ma'nosidagi *adir* so'ziga -t qo'shilib, *adiri* (*farq*) so'zi yasalganligi haqida aytilgan. Hozirgi ajrat so'zi shundan kelib chiqqan. Menimcha, *chiqit* so'zi ham shunga yaqin. Shundan kelib chiqib, *yurt* so'zini yur fe'ldan paydo bo'lgan desa bo'ladi. Qolaversa, "Turkiy tillar etimologik lug'ati"da ham yurk so'zi yur fe'ldan kelib chiqqan degan fikr bor. To'g'risi,

men bu ma'lumotga yuqorida aytib o'tgan mulohazalarimdan keyin duch keldim. Darhaqiqat, yurt har kimning yuradigan-turadigan joyidir.

Mahmud Koshg'ariy *yurt* (*jurt*) so'zi *baland joylarda saqlanib qolgan bino qoldiqlari, devor tagi, qo'rg'on aloamati* hamda *idish og'zi* ma'nosini anglatishi haqida aytgan. Koshg'ariyda mavzumizga oid yana bir ma'lumot bor, unga ko'ra, o'g'uzchada har narsaning atrofi ma'nosi *jura* (*yura*) so'zi bilan ifodalangan. Ko'p yillar avval menga *yur* fe'li yer so'zidan paydo bo'lgan bo'lsa kerak, chunki *yurganda yerda* yuriladi-ku, degan o'y kelgandi. Lekin ko'plab manbalar mening bu farazimni rad etdilar.

Eshqobil SHUKUR

ORAMIZDAGI ODAMLAR

ORZULARNI QAYCHILAMANG!

Atoqli rus adibi Anton Chexov bir hikoyasida yozgandek, ming yillar burun ham quyosh xuddi bugungidek tongda chiqib, shomda botar edi. Shunga o'xshab, insoniyat yaralgandan to bugunga qadar an'anaviy yashab kelayotgan hunarlar bor. Gapni mavzuga bursak, ming yillar avval ham odamlar soch-soqolini kuzash uchun sartaroshga borgan, bugun ham shunday. Yovga zinhor bosh egmagan shohlar ham sartarosh oldida boshini quyi solgan.

Eslasangiz, Abdulla Orifning "Sohibqiron" dramasi saroyda Amir Temur va sartarosh suhbatidan boshlanadi:

Sohibqiron, boshingizni sal quyi eging,

Ustaramning tig'i o'tkir, dami ko'p tezkor!

Ha, sartaroshlik avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan azaliy hunarlardan. Bunday otameros kasblarning o'z qadriyati bor: tolib ustozidan duo olagina ishdan baraka topadi. Men ham ko'plarning tavsiyasi, maqtovi bilan usta Davronning dovrg'ini eshitib, qidirib keldim.

O'zining aytishicha, bolaligida bobosi yetovida mahalla guzaridagi sartaroshxonaga serqadam bo'lishgan, har ikki kunning birida gurunglarga chiqqan. Bobosi o'rtoqlari bilan suhbatni qizitar palla bizning bolakay bu yoqda sartarosh xizmatini o'bdan kuzatib, kasbga mehri tushgan. Maktabdan so'ng tengqurlari kabi koptok quvmay, ustaxonaga boradigan odat chiqqan. Bora-bora uyidagilar ham Davronni izlab ovora bo'lmas, qosh qoraygach, to'g'ri sartaroshxonaga borib, o'sha yerdan topishar va uyiga birga olib qaytishar ekan. Sakkizinchi sinfga o'tgandayoq kasbga qo'li ancha kelishib, oldiniga bobosi, keyin mahalladagi chollarning soch-soqolini ola boshlabdi, qo'lhaqini ham, albatta...

Ustaning ishxonasi hashamdor emas, biroq salqin, ozoda. O'zimizning sharqona muhit: kattalar navbat kelguncha bemalol joylashib, achchiq choyni bosib-bosib ichib, o'tgan-ketgandan so'ylashib o'tiradi.

Iltorga yaqin odam siyraklab, unga bir-ikki savol bergan bo'ldim. Aslida, ustani ungacha tanib ulgurgandim, xuddi oldindan biladigandek.

"Odam o'zi sevgan ish bilan shug'ullansa, qarimas ekan, – deydi usta Davron. – Turli fe'l-atvordagi odamlar bilan ish ustida suhbatlashaman. Birda shukur qilsam, birda fikr qilaman. Mundoq qarasangiz, har bir inson hayotini kitob qilsa bo'ladi..."

Mayli, qo'ymadingiz, o'zi aytadigan gap emas... uzoq-yaqindagi uyidan chiqolmaydigan keksalar, nogiron yoki to'shakka mixlanib qolgan bemorlar uyiga borib, xolis xizmat ko'rsatamiz. Ko'ngil so'raymiz...

Ha, yaxshilik qilish uchun insonga pul kerak emas, xohish bo'lsa bas. Mana, bizgacha ham dunyoga milliardlab



odam kelib-ketgan, biz ham shulardan birimiz. Nasib qilsa, ertaga qarishimiz bor, dunyoga kelib kimga qanday xayrim tegdi, nima qiloldim deb o'z-o'zimni so'roqlashimiz bor. O'shanda mening ham oz bo'lsa-da yaxshi amallarim bor-ku, deb qanoat tuysam deymen. Har kim o'z sohasida insonlarga, jamiyatga nafi tegsa, mana bu men uchun yashalgan umr bo'ladi...

Bir mijozimni yoshligida yuk bosib, oyoqdan qolgan. O'zi yetmish yoshlar atrofida. Ishonsangiz, shu odam mashina minib, kira qiladi. Bechoraman deb noliish yo'q. Shuni yozsangiz bo'larkan...

Ertaga nima bo'lishini bilmaysan ekan odam. 2021-yili palakatga uchradim. Sinmagan joyim qolmadi, ikki oy qimirlamasdan shiftga ko'z qadab yotdim. O'sha kunlari uyimizga tumonat odam yo'qlab kelardi: qarindosh-urug', yor-u do'st, mijozlar... Avvalo Xudo, o'z vaqtida ko'rsatilgan yordam, keyin yaqinlarning duolari bilan ham oyoqqa turdimmi deymen...

O'ziga shukur, hozir ko'rib turganingizdek o'tdayman. Ustozlarim Husan aka, Tohir aka, adashim Davron aka, yonimdagi hamkasb bolalar – ikkalasining ham ismi Muhammad. O'tgan kunlarimga qaray turib shogirdlarga ko'p-da aytib turaman, orzu qil, yaxshilik qil, o'zingni savobdan tiyma, odamlarga xayring tegsin... Bu xulosalar menga ish davomida keladi. Bilasizmi, qaychilashdan to'xtasam, ba'zan o'y bosadi: mana, biz qaychilaymiz, so'ng odamning yuz-ko'zi, chiroyi ochiladi, qog'ozlarni qaychilab san'at asarlari yaraladi... ammo orzularni qaychilab bo'lmas ekan. E'tibor bermang, shunday xayollar keladi ba'zan. Xullas, shunaqa..."

"Endi soch unganda kelamiz". Kulishib xayr-xo'shlashdik. Mabodo siz ham kelmoqchi bo'lsangiz, Qo'ylig bozoridan shundoq o'tib, ko'prikan tushishda guruh bozoriga burilamiz-ku, uch-to'rt qadam narida, chap tomonda. Topishga qiynalsangiz, shu atrofda qilardan "usta Davron kerak", deb so'rang, katta-uy kichik yaxshi taniydi...

Darvoqe, Abdulla Orifning "Sohibqiron" pyesasida Amir Temur sartaroshning tiloviga shunday javob beradi:

*Sartaroshga bosh egar, ha, jahongirlar ham,
Boshqalarga egilishdan asrasin Xudo!*

Jamoliddin BADAL

ZARDA

Bugun yurtimiz ko'chalarini aylanib, yaqin o'n yillar ichidagi o'zgarishlar, misli ko'rilmagan bunyodkorlik ishlari, yangilanishlarni ko'rib dil yayraydi. Poytaxtimizning dunyodagi boshqa rivojlangan shaharlar bilan bo'yashadigan zamonaviy qiyofasi, chiroy ochib borayotgan ko'chalar, osmono'par inshootlar – har biri o'zgacha g'urur, iftixor bag'ishlaydi. Turli savdo majmualari, dam olish maskanlarining ko'payganini aytib, quvonmay bo'ladimi? Kamiga xorijsan, qo'shni davlatlardan kelayotgan sayyohlarning zig'ircha e'tirofi ham quvonchingga quvonch qo'shadi. Biroq...



KITOB VA XITOB

mi? Tag'in kim bilsin, boshqa sabablari bordir. Yo'l bo'yi o'zim o'zimga savol berib, javobini ham o'zim(izdan) axtardim.

To'g'ri-da, qadamda ovqatlanish shoxobchasi – mana qahvaxona, anavi kafe, undan naryog'i restorani, gavjum ko'cha bar-yida qator saf tortgan dorixonalar, peshtoqida kurktovuq tuxum bosib yotgan hov anavining "do'mboq jo'ja" yemakxonasi, ularning har biri orasida tarchilarning naqarotiday takror keladigani esa fast-fud bo'ladi. Ozib-yozib kirasan, tepaga tanga otsang yerga tushmaydi – shu qadar gavjum, o'tirgani joy topish mahol. Tushlik yo kechlik paytini indamay qo'ya qolay. Qoshiqlar tiqirlashidan girgitton do'lmari "o'lma" deb eshitadi. Bu tumonatni ko'rib "Odamlar uyda ovqat qilmay qo'ydimi?" yo "Bizning yemakdan bo'lak dardimiz yo'qmi?" degan xayollar o'tadi-da. Eslasam, bobo-buvilarimiz "Bir burda nonga qorin to'yadi, ovqatga ko'pam ruju qo'yma, ko'p yemak ham ziyon", deb pand o'qishsa, lab-lunjimizni ositirib olib o'zimizcha ranjigan odam bo'lgan ekanimiz.

Keyin, sizga ham shunday tuyuladimi: shifoxonaga borsangiz, hamma o'sha yerdadek! Har eshatkida do'xtir qabuliga turnadek! Navbatda do'xtir odamning yuragi orqaga tortib ketadi. Ovqatlanish shoxobchalarida odam qanchalik ko'p bo'lsa, bu yoqda ham shuncha. Ahli dunyoda topib aytgan ekan: "Shifo tilasang, ko'p yema".

Bir mahallari poytaxtning Uchtepa tumani 23-dahasida kitob do'koni bo'lardi. "Knijniy" desak, hamma bilardi. Mo'ljalni shunday aytisak, sira adashmay eltib qo'yishardi. Yaqinda bir tanishim o'sha kitob do'koniyam yopilib ketganidan kuyinib gapirdi. O'rniga allaqanday "Gumma-xonim" ochilganmish.

Biz toki, kitob do'konlarini yemakxonalar sonidan ko'paytirmas ekanimiz, dorixonalar bolalayveradi. O'zimga qolsa, har bir mahallada kamida bittadan kitob do'koni tashkil qilinsa deymen. Axir ota-bobolarimiz ham najotni ta'limda, kitobda deb bilishgan. Og'ir sharoitlarga qaramasdan zulmatni ma'rifat mash'ali bilan yoritishga harakat qilishgan, bu oljanob niyat yo'lida mollarini-yu jonlarini

ham ayamagan. Aslida kitob o'qigan odam kitob o'qimanganga qaraganda dunyoni butunlay boshqacha qimmatda, boshqacha ranglarda, boshqacha nisbatlarda qabul qilishi sir emas. Aslan (doim ham) mamlakatlar taraqqiyotiga sabab ularning kitobga, kitobxonlikka munosabati ekanini unutmaylik.

Ijtimoiy tarmoqlarda Belgiyadagi shahar ko'chalarini manzarasini ko'rib, ishonib, havasim keldi. Minglab kitob terilgan bekat. O'z avtobusini kutish paytida vaqtini g'animat bilib mutolaaga tutingan yo'lovchilar. Tasavvur qildingiz-a? Endi mana shu shirin tasavvuringizni fast-fudli, chaqchuqli, gadjetli bekatlar bilan buzsam, qarshimasiz?

Bular-ku ko'cha-ko'y ekan, uydayam ahvol obod emas. Oldinlari biror oddiy xonadonga kirsak ham stol ustida kamida uch-to'rt kitobga ko'zimiz tushardi. Ko'plab xonadonda chog'roq kitob javoni, ijod ahli vakillarida esa kattagina kutubxona bo'lardi. Televideniya ishlab yurgan kezarimiz ko'plab shoir, yozuvchilardan suhbat olish asnosida

kamera ko'tarib xonadoniga borardik. O'shanda dasturlarning birida rahmatli Ozod Sharafiddinovning kutubxonasini ko'rib hang-u mang bo'lib qolganman. Shunchalik boy kutubxona ediki, istalgan adabiy-badiiy, tarixiy, ilmiy kitobni topish mumkindek. Yana shunga o'xshash kutubxonani akademik Matyoqub Qo'shjonov, o'ziga xos muharrirlik maktabi yaratgan ustoz ijodkor Mahmud Sa'diyning uylarida ko'rganman. To'g'ri, ularning xonadoni katta emas edi, ammo uyga kirsang dimog'ingga ovqat hidi emas, gup etib kitob nafasi urilardi.

Ba'zan ustunlariga qo'l yoysang quloching yetmas mahobatli hovlilarda ham tasvirga olish ishlari bilan bo'ldik. Shunday hashamat ichida qimmat idish-tovoqlarga topilgan zarhal rastalar yonidan kitob javoniga joy tegmaganiga achiniblar ketasiz.

Gap kitob, mutolaa haqida borarkan, yaqinda gazeta izlab "kioska"ga oshiqdim. Rosti, gazeta izladimmi yoki "kioska"mi, o'zim ham tushunmay qoldim. Aksiga, yaqin atrofda uchramadi. Uch-to'rt bekat yurib do'konni topdim deganda gazetaning o'zi yo'q. Sarg'ayib ketgan eski to'rt-besh nashr nomiga osig'liq, amalda mayda-chuyda baqqollik savdosi ketyapti. Endi tirikchilik, bunisida shunaqadir-da, degan yaxshi gumonda boshqa "kioska"larga borgan bo'ldim, o'sha ahvol...

Bularning bari qizalog'imning ertalab qo'limga tutqazgan ro'yxatidan boshlangan gaplar. Yana qancha otana qo'lida ro'yxat tutib kitob do'konini izlayotgani menga qorong'i. Kim bilsin, balki ular biror mo'jaz restoranda qoshiqlarning quloqni qomatga keltirar tiqir-tiqiri ostida oshgami, do'lmagami buyurtma berayotgandir.

...Hali ostonada qizim kitoblarni ko'riboq ko'zlari chaqnaq kutib olishi bor. Bu zavqni tezroq his qilishim kerak. Gapni cho'zib o'tirmay tezroq uyga kira qolay.

Nosirjon ERKABOYEV

Jadid
adabiy, dunyo o'rti va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



"SHAHIDLILAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:

Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:

Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:

Dilmurod Do'stbekov

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov

Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 8 050
Lotin yozuvidagi adadi – 12 617
Media kuzatuvchilar – 40 779
Buyurtma: G – 440.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz